

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI



ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ
ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ

BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

«Himoya qilishga ruxsat beraman»
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi
fakulteti dekani

_____ dots. Rabbimov M.T.

«___» _____ 2013 y.

5141600 – boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

“BOSHLANG'ICH SINFDA ANIQLOVCHINI O'RGATISH METODIKASI”

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi fakulteti
IV kurs talabasi Sultonova Dilfuza

Ilmiy rahbar: Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va
amaliyoti kafedrası katta
o'qituvchisi, fil.f.n. Ibragimova F.E.

Ishni himoyaga tavsiya etaman:

_____ (imzo)

_____ (ilmiy rahbar ismi va sharifi)

BMI «BTN va A » kafedrası yig'ilishining qarori bilan
(Qaror № , 2013 y.) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____

(ismi va sharifi) (imzo)

JIZZAX– 2013

MAVZU: BOSHLANG'ICH SINFDAN ANIQLOVCHINI O'RGATISH METODIKASI

REJA:

KIRISH

I BOB. TILSHUNOSLIKDA GAP BO'LAKLARINING O'RGANILISH DARAJASI.....

1.1. GAP BO'LAKLARINI FUNKSIONAL VA STRUKTURAL O'RGANISH TARIXIDAN.....

1.2. ANIQLOVCHINING TURLARI VA IFODALANISHI HAQIDA MA'LUMOT.....

II BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA GAP BO'LAKLARINI O'RGATISH METODIKASINI ISHLAB CHIQUISH.....

2.1. BOSHLANG'ICH SINFLARDA GAP USTIDA ISHLASH.....

2.2. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ANIQLOVCHI USTIDA ISHLASH.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: “Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda”. O'zbek tilshunosligida sintaktik birliklarning tildagi vazifalarini aniqlash tadqiqi masalasi ham ona tilimizning yangi-yangi qirralarini ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «**Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch**» asarida “...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim,” deb ta'kidladi¹.

O'zbek (ona) tilini o'qitish markazida til o'rganuvchilarning o'zaro hamda o'qituvchisi bilan nutqiy muloqoti turmog'i lozim bo'ladi. Ammo mana shu muloqot to'g'ri yo'lga qo'yilishi uchun grammatika qonun qoidalarini yaxshi bilishga qo'maklashuvchi topshiriqlardan iborat mashg'ulotlar nazariy yoki amaliy ahamiyat kasb etibgina qolmay, o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini shakllantiradi, orttirishga ham hissa qo'shishi talab etiladi.

Ana shu qiziqishni shakllantirishda, uni tobora mustahkamlab borishda sintaksisni o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

O`qituvchi har bir mavzu va topshiriqni nafaqat nutq o`stirishga, shuningdek, yoshlar dunyoqarashini boyitishga, tafakkur doirasini kengaytirishga ham xizmat qildirishi shart ekanligini yodda tutishi darkor.

Til ta'limidagi to`rt zaruriy amal – tinglash, so`zlash, o`qish va yozishning mutanosib tarzda olib borishga harakat qilish zarurligini ta'kidlash joiz. Ammo mavzuning mazmuniga mos ish tutib, bir xil topshiriqlar og`zaki nutq, boshqalari yozma nutq ko`nikmalarini mustahkamlashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, o`zlashtirilgan har bir mavzu darsdan tashqari tadbirlar bilan uzviy bog`lanishiga erishish lozim. Bularni o`rni bilan sahna chiqishlarini tashkil etish, rolli o`yinlar o`tkazish yaxshi samara beradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda va odilona nazar tashlanganda tanlangan va amalga oshirilgan muammo (mavzu)ning o`zi nihoyatda dolzarbligini, qolaversa, uning o`quv jarayonidagi roli benihoyat katta ahamiyatga ega ekanligini ko`rsatadi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsad va vazifalari: boshlang`ich sinflarning ona tili darslarida o`quvchilarning tafakkurini rivojlantiruvchi o`quv topshiriqlari, xususan, boshlang`ich sinflarda gap bo`laklarini o`rgatish metodikasini ishlab chiqish, boshlang`ich sinflarga gap bo`laklari tushunchasini o`rgatishda ularga qo`yiladigan talablarni aniqlash, o`quv topshiriqlarining tuzilishi, vazifalari va imkoniyatlarini tavsiflash, boshlang`ich sinf ona tili darslarida o`quvchilarning faol fikrlashlarini va tafakkurini rivojlantirishda gapning va gap bo`laklarining o`rni va rolini belgilash, uning muhim vosita ekanligini lingvistik-grammatik o`yinlar vositasida o`quvchi-yoshlarning bilim saviyalari yanada yuqorigi bosqichlarga ko`tarish va mustahkamlash borasida fikr-mulohazalar yuritish, shu sohada qo`llangan dastlabki ijodiy tajribalarimizni baholi qudrat bayon etish-muhokamaga qo`yilgan ushbu kamtarin malakaviy bitiruv ishimizning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni o`z oldimizga qo`ydik:

1. Tilshunoslikda gap bo'laklarining o'rganilish darajasini aniqlab chiqish.
2. Gap bo'laklarini funksional va struktural o'rganish tarixini o'rganib chiqish.
3. Aniqlovchining turlari va ifodalanishini tahlil qilish.
4. Boshlang'ich sinflarda gap bo'laklarini o'rgatish metodikasini ishlab chiqish.
5. Boshlang'ich sinflarning ona tili ta'limi darslarida amalga oshiriladigan, o'quvchilarning tafakkurini rivolantirishga xizmat qiladigan mustaqil o'quv topshiriqlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
6. Nutq o'quvchilarning faol fikrlashlarini shakllantiruvchi asosiy manba sifatida va vosita ekanligini izohlash;

Malakaviy bitiruv ishining manbasi:

Mazkur ishning manbasi-fakultetimiz mutaxassisligi mos keladigan va shu sohada ishlashimiz mumkin bo'lgan bosqich-boshlang'ich sinf ona tili darslarida ikkinchi darajali bo'laklardan aniqlovchini o'rgatish yo'li bilan o'quvchilar bilimlarini mustahkamlash.

Malakaviy bitiruv ishining mavzusi natijalarining joriylanishi hamda uning tarkibi:

Malakaviy bitiruv ishi mavzusi dastlab fakultet ilmiy Kengashida, Institut o'quv uslubiy kengashida tasdiqlangan va Institut rektori buyrug'i bilan rasmiylashtirilgan. Malakaviy bitiruv ishi natijalari Institut talabalarining 2009-2013 o'quv yillaridagi ilmiy–nazariy anjumanlarida, «Boshlang'ich ta'lim uslubiyati» kafedrasining shu yillaridagi «Ona tili» to'garagi yig'ilishlarida muhokama qilingan.

Dastlabki himoya kafedra yig'ilishi muhokamasidan o'tib, ochiq himoyaga tavsiya etilgan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, 2 bob (birinchi bob 2 paragrafdan, ikkinchi bob 2-paragrafdan iborat). Shuningdek, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

I-BOB. TILSHUNOSLIKDA GAP BO'LAKLARINING O'RGANILISH DARAJASI

Umumtilshunoslikda olimlar e'tiborini o'ziga jalb etib kelayotgan muommolardan biri gap bo'laklari, ularning tipologiyasi va kriteriysi masalasidir. Avvalo, bu masalaga doir boy ilmiy manbalar yaratilganligi mutaxassislariga ma'lum. Chunonchi, o'zbek tilshunosligida birgina kesimga bag'ishlangan maqola va ilmiy axborotlardan tashqari, T.Ibrohimov, A.Safoev, J.Omonturdiyev, B.Egamberdiyev, X.Xoliyorov, T.Akramovlarning monografiyalari mavjud. Shunday bo'lsada, qator xalqlar tilshunosligida hali gap bo'laklari, jumladan, kesim haqidagi mavjud tasniflarning nomukammalligini, bo'lak tiplari o'rtasidagi ichki qonuniy bog'lanishlar va ularni farqlovchi muhim belgilar, korrelyativlik yetarli tadqiq etilmaganligini ko'rsatmoqda. Bu holat amalda gap bo'laklari tiplarini bir-biriga qorishtirishga, terminalogik chalkashlikning yuzaga kelishiga va natijada o'qitish ishlarida ma'lum qiyinchilikning tug'ulishiga sabab bo'lmoqda.

Mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etish zarurligi va ayni zamonda, bu ishning juda murakkabligi haqida ayrim olimlar jiddiy fikr aytmoqdalar. Jumladan, V.S.Yurchenko kesim tiplarini atroflicha yoritish fundamental tadqiqotlar talab qilishini ko'rsatib: "kesim tiplarini o'rganish problemi sodda gap tiplarini o'rganish problemasining ajralmas bir qismidir",

Darhaqiqat, mavjud ilmiy ish, darslik va qo'llanmalarida gap bo'lagi, uning turlari, ifodalanishi va tuzilishiga doir qimmatli fikrlar bayon etilgan bo'lsa ham, bular hali gap bo'lagini o'rganish va o'rgatishdagi mavjud qiyinchiliklarni bartaraf qila olgan emas. Chunki, bir tamondan, gap bo'lagi kriteriysi, sintaktik aloqo turlari va vositalari ishlanmagan bo'lsa, ikkinchi tamondan, uning: a) funksional, b) ifoda, v) struktural rejada tasnif maxsus o'rganilmaganligi bilan izohlanadi. Bu bosqichlar bir-biri bilan bog'langan bo'lib, bittasining o'rganilmaganligi ikkinchisi o'rganishda qiyinchilik tug'diradi.

Gap bo'laklarining ifoda materiallari shu qadar boyki, ular: 1) morfologik rejada hali yetarli darajada o'rganilmagan, o'zining ta'rif-tavsifiga mas atamalarga

ega emas; 2) bu morfologik “ash’yolar”ni sintaktik rejada-gap bo’lagi sifatida talqin qilish, modellashtirish-“qolip”ini topish va nom berish katta qiyinchiliklar bilan bog’liqdir.

Olimlar gap bo’laklarining funksional turlariga ta’rif beradila-ru, bo’lak tushunchasini belgilash va ta’riflashga e’tibor bermaydilar. Holbuki, gapni bo’laklarga ajratish gapning strukturasini o’rganish uchun asosiy va boshlang’ich nuqta bo’lib xizmat qiladi. Butunning mohiyati bo’lak orqali ochiladi-butun bo’lakning sintezi, u bo’lakning zaminida yashaydi. Qolaversa, gap bo’lagi tushunchasining to’g’ri belgilanmaganligi tilshunoslikda ko’pgina formal hodisalarni-gap bilan gramatik aloqaga kirishmaydigan, gapning uzviy yoki struktural qismi bo’la olmaydigan kirish so’z va undalmalarni gap bo’lagi deb qarashga sabab bo’lmoqda.

“Gapning ikkinchi darajali bo’lagi haqidagi traditsion tasnif” – deb yozadi V.V.Vinogradov, - tubdan qayta ko’rib chiqishga muhtojdir”. Yana bir o’rinda u quyidagicha fikr yuritadi: “Gapda ajratilayitgan uchta ikkinchi darajali bo’lak va ularning turlarga (rublikalarga) bo’linishi, gap sostavida so’zlarning juda ko’p jonli sintaktik aloqalarining ko’rsatilayotgaligi gramatik jarayonlarga emas, balki gap strukturasining sun’iy sxematizatsiyasiga asoslanib amalga oshirilmoqda”.

Ko’rinadiki, garchi traditsiyon gramatikada gapningbesh bo’lakli funksional tasnifi mavjud bo’lsa-da, bu haqda umumiy bir fikr yo’q.

1.1. GAP BO'LAKLARINI FUNKSIONAL VA STRUKTURAL O'RGANISH TARIXIDAN

Traditsion gramatikada ham gapda so'zlarning bog'lanishi haqida fikr yuritilgan bo'lsa-da, XIX asrning boshlariga gap bo'laklari haqidagi talimot aniq bir formada shakllanmadi. Bu asarlarda gap bo'laklari haqida emas, balki so'z turkumlari va ularning gapdagi sintaktik munosabati haqida aytiladi. Jumladan *fe'l otni boshqaradi* kabi. Maslan, *obstoyatel'stvo* (hol) termini, birinchi marta M.V.Lomonosovning "Rossiyskaya gramatika" asarida qo'llanilgan, u so'zlarning gapda boshqaruv va moslashuv munosabatiga kirishishini aytadi, biroq gap bo'lagi va ularning tasnifi haqida ma'lumot bermaydi.

Gap bo'laklarining tasnifi birdaniga paydo bo'lgan emas, albatta.

Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari haqidagi nazariya birinchi bo'lib falsafiy gramatikada yoritilgan. Jumladan, N.I.Grech va A.X.Vostokovlarning tadqiqotlarida ikkita ikkinchi darajali bo'lak aniqlovchi va to'ldiruvchi tan olingan. Hol qisman aniqlovchiga, qisman to'ldiruvchiga kiritilgan. Hol P.M.Perelevskiyning "Nachertanie russkogo sintaksisa", F.I.Buslaevning maktab uchun tuzilgan darsliklarida ma'lum darajada tiklandi. F.I.Buslaev gap bo'laklarini ikki belgisi: 1) sintaktik boshqarilishiga; 2) ma'noga asoslanib tasnif qilgan. Boshqcha aytganda, mazkur tobe va hokimlik, tobe so'zning ma'nosi, funksiyasi asos qilib olingan. Qo'shiluvchilar moslashuvli bo'lsa, aniqlovchi, boshqaruvli bo'lsa, to'ldiruvchili birikma deb nomlangan. "Gapning yana aniqlovchili, to'ldiruvchili birikmalardan farqlanadigan shunday bo'laklari borki, - deb yozadi muallif, - ular so'zining moslashuv va boshqaruv aloqasida bo'lmaydi. Bunday so'zlar hol deb ataladi".

Ko'rinadiki, F.I.Buslaev bitishuv termini qo'llamagan bo'lsa ham, uning xususiyatlarini ifodalay olgan.

F.I.Buslaevning ikkinchi darajali bo'lajlar tasnifi haqidagi bu ta'limoti, bir tamondan, maktab darsliklarida, ikkinchi tamondan, ilmiy ishlarda o'z aksini topa boshladi.

Garchi F.I. Buslaev gapning uchta ikkinchi darajali bo'lagini ajratgan bo'lsa-da, bu tasnifga, asosan, morfologik reja asos qilib olingan edi. Xullas, gap bo'laklari, jumladan, ikkinchi darajali bo'laklar tasnifida mukammal prinsiplar ishlab chiqilmaganligi uchun uning tahlilida qiyinchiliklar, har xil qarashlar yuzaga kelgan. Shu munosabat bilan N.K. Kul'man akad. A.I. Sobolevskiyning "Sintaktik tahlillari uchun bir-biriga "uch" dan ortiq baho qo'yadigan ikkita o'qituvchi topilmasa kerak. Chunki biri to'g'ri deb bilgan tahlilni ikkinchisi xato hisoblaydi va aksincha" degan fikrni keltirgan.

Bu qiyinchiliklar tufayli A.A. Potebnya, D.N. Kudryavskiy, D.N. Ovsyaniko-Kulikovskiy kabi olimlar ham ikkinchi darajali bo'laklarni morfologik prinsiplarga asoslanib so'z turkumi bo'yicha tasnif qildilar.

A.A. Potebnyaning fikricha, har bir gap bo'lagi ma'lum so'z turkumi bilan ifodalangan bo'ladi. "Shaxsli fe'l – kesim yoki kesimlik bog'lamasi, bosh kelishikdagi ot – ega, vosita kelishigidagi ot-to'ldiruvchi, kelishik orqali moslashuv aloqasiga kirishadigan otlar-aniqlovchi, ravish bilan ifodalangan maxsus forma holdir".

Anglashiladiki, A.A. Potebnya so'z turkumlarini gap bo'laklari bilan teng hodisa deb qaraydi. So'zlar kontekstdan tashqari quruq tovush, sun'iy preparatdir: tilga yagona real hodisa-bu gap yoki nutq ekanligini, shuning uchun ham faqat gap bo'laklarinigina bu tasnifning obekti bo'lib xizmat qilishini, hattoki, so'z turkumlarining shakllanishi ularning sintaktik funktsiya bajarishi tufayli yuz berishini takidlaydi.

Formal – gramatik maktab vakllari gapning ikkinchi darajali bo'lagini aniqlashda: a) ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligiga; so'zlarning formal sintaktik aloqasi harakteriga asoslanadilar: aniqlovchi termini ostida ot bilan moslashuv munosabatiga kirishgan, to'ldiruvchi termini ostida boshqaruv aloqasiga kirishgan, hol termini ostida bitishuv aloqasiga kirishgan tobe so'zlarni tushundilar va mazkur nazariya ikkinchi darajali bo'lakni o'rganishni jadallashtirdi. Faqat bo'laklar o'rtasidagi tashqi formal morfologik sintaktik aloqaning e'tiborga olinishi tilni tafakkurdan ajratishga, formalizimga olib keldi.

Natijada, ikkinchi darajali bo'lakni o'rganish, ularni turlarga ajratish inkor qilina boshlandi: ularning hammasini bir gruppaga birlashtirib, to'ldiruvchi termini bilan atash taklif qilindi.

Umuman, ikkinchi darajali bo'lak va ularni turlarga ajratish haqidagi formalizm oqimi vakillarining qarashlari o'zlarini ham, shu qarashga qarshi oqim namoyandalarini ham qanoatlantirmadi. Chunki bu ta'limot hech qanday yangilik qo'sholmadi, aksincha terminologiyada ortiqcha parallelizmga olib keldi.

Keyinchalik bu talimot maktab va oliy o'quv yurti darsliklaridan chiqarib tashlandi. Faqat so'zlarning alohida tiplari haqidagi fikrlar saqlab qolindiki, bu qarashlar A.M.Peshkovskiy ishlarida o'z ifodasini topdi. U shunday deb yozadi: "... gapda ega va kesimdan tashqari: 1) boshqaruvli ikkinchi darajali bo'laklar (predlogli va predlogsiz vosita kelishigidagi otlar); 2) moslashuvli ikkinchi darajali bo'laklar (predikatlasmagan, substantivlashmagan sifatlar); 3) bitishuvli ikkinchi darajali bo'laklar (ravish, ravishdosh, infinitiv) bo'ladi".

A.M.Peshkovskiyning ikkinchi darajali bo'lak haqidagi qarashlarida tomon shundaki, u bo'laklarning formal va logik munosabatlarini birga olib tekshiradi.

Ma'lumki, logik-gramatik va formal – gramatik maktabining lingvistik qarashlari keyingi tilshunoslar tomonidan forma va mazmun birligi nazarda tutilgan holda tahlil qilib berildi.

A.G.Rudnev formal-gramatik oqim vakillarining ikkinchi darajali bo'lak haqidagi fikrlarini tanqid qilib, so'zlar gapda ham tashqi-formal aloqaga, ham ichki-fikriy munosabatga kirishini uqtiradi va birinchisidan sintaktik aloqaning (moslashuv, boshqaruv, muvofaqlashuv) ikkinchisidan sintaktik munosabatning turlarini keltirib chiqaradi. Muallif so'zlarning ichki yoki fikriy aloqalari nuqtayi nazaridan sintaktik munosabatning quyidagi turlarini ko'rsatadi:

1.Ega-kesim o'rtasida yuzaga keladigan predikativlik munosabati. Bunda kesim eganing biror belgisini tasdiq yoki inkor qilish yo'li bilan anglatadi: Quyosh chiqdi.

2.Aniqlovchilik munosabati. Bunda aniqlovchi so'z aniqlanmishning sifatini, xususiyatini anglatadi. Bunday so'z birikmalari gapni hosil qilmaydi, balki ular

ega yoki kesim sostaviga bog'lanib, predikativlik munosabatini reallashtirishga xizmat qiladi: Moviy bayroq hilpiraydi.

3.To'ldiruvchilik yoki obekt munosabati. Bunda u yoki bu predmet harakat obekti bo'lib, tobe holatda bo'ladi: O'qituvchi kitobni o'qidi.

4.Holat munosabati. Bunda konketlashtiruvchi so' holat ifodalaydi: O'qituvchi tez gapirdi.

Sanab o'tilgan sintaktik munosabatlar sintaktik aloqaning moslashuv, boshqaruv, bitishuv va muvofiqlashuv usullari bilan ifodalanishni takidlaydi.

Undalma, kirish so'z, kiritma, uyushiq va ajratilgan bo'laklarning gap bilan bo'lgan munosabatini gramatik aloqoning bir turi sifatida muvofiqlashuv termini bilan ataydi, yani ularning gap bo'lagi (modal bo'lak) hisoblaydi. Shu bilan birga, muallif ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlashda: 1) ularning semantik-sintaktik funsiyasiga;

2) morfologik belgisi va aniqlanmish bilan bo'lgan grammatik aloqa vositalariga; 3) aniqlanmish morfologik ifoda formasi va sintaktik roliga; 4) aniqlanmish va aniqlovchining leksik ma'nosiga e'tibor berish kerakligini uqtirgan.

A. M. Muhin esa bosh va ikkinchi darajali bo'lak o'rnida ikki xil komponenti ajratadi. Bular: yadro (bosh bo'lak) va noyadro (ikkinchi darajali bo'lak) komponentlar, so'ngra gapni odatagidek bo'laklarga yoki sostavlarga emas, balki yadro komponentlarining ishtirokiga ko'ra ikki yadroli va bir yadroli; noyadro komponentlarining ishtirokiga ko'ra yoyiq va yig'iq turlarga ajratiladi; uningacha, yadro va noyadro komponentlar o'rtsida quydagi sintaktik aloqa turlari-funkcion modellar bor: 1) sotsiat-predikativ, 2) nol-predikativ, 3) subordinativ, 4) introduktiv. Ikki yadroli yig'iq gapda faqat sotsiat-predikativ, bir yadroli yoyiq gaplarda esa nol-predikativ aloqa mavjud: ikki yadroli va bir yadroli yoyiq caplarda esa sotsial-predikativ hamda nol-predikativ aloqalaridan tashqari, subordinativ va intiroduktiv aloqalar ham mavjud.

Quydagi ikki holatni qayd etamiz:

1) Terminalardan ko'rinib turibdiki, A. M. Muhin ham gapni tradision bo'laklarga ajratmaydi. Chamasi, muallif bo'laklarni odatagidek, funksional turlarga ajratish tarofdori emas;

2) Introduktiv aloqadan ko'rinadiki, A. M. Muhin ham ayrim olimlar kabi gap bilan grammatik jihatdan bog'lanmagan so'zlarni introduktiv aloqa yo'li bilan munosabatga kirishgan gap komponenti deb hisoblaydi.

I. R. Raspopov "Gapni grammatik (konstruktiv-sintskyik) bo'laklarga ajratish" masalasini alohida bob sifatida o'rgangan.

Unda muallif, avvalo, gapni grammatik jihatdan bo'laklarga ajratish sintaksisda eng aktual masalalardan biri ekanligini, faktik materiallarning tabiatga, tahlilga mos emasligini, shuning uchun gap bo'laklari va uning tasnifi tubdan qayta ko'rib chiqilishi, lingvistik adabiyotlarda hukm surayotgan har hil takliflar o'rganilib, umumlashtirilishi kerakligini aytadi. Shuningdek, gapni grammatik jihatdan bo'laklarga ajratishda faqat so'zlar o'rtasidagi formal-sintaktik aloqalarga emas, shu bilan birga, ajratilayotgan gap bo'lak kommunikatsiyasi va strukturasining konstruktiv-sintaktik komponenti ekanligiga ham alohida e'tibor berish kerakligini uqtiradi. U gap bo'laklarini tasnif qilar ekan, gap sostavida so'zlarning teng aloqa, tobe aloqa, tobe aloqaning subordinativ, koordinativ, applektiv turlarini ko'rsatadi. Gap bilan grammatik jihatdan bog'lanmagan, shuningdek, ajratilgan bo'laklar aloqasini applektiv termini bilan aytadi.

Shuningdek, I.R.Raspopov bosh bo'laklarni belgilashda uning:

- a) Gapning tashkil qiluvchi hokim holatdagi komponent ekanligiga;
- b) Qanday sintaktik aloqaga (masalan, qisman koordinativ aloqada bo'ladi) kirishganligiga;
- c) Aloqaga kirishgan komponentlarning sintaktik munosabatiga e'tibor berish kerakligini ta'kidlaydi.

Ikkinchi darajali bo'laklarni tasnif qilishda esa:

- a) Hokim komponentning valentlik xususiyatiga;
- b) Tobe komponentning hokim komponentga bog'lana olish darajasiga (semantikasiga) e'tibor berish kerakligi uqtiradi.

Ikkinchi darajali (subordinativ aloqadagi) bo'laklarni, jumladan, aniqllovchini atributiv (bunda keng ma'nodagi aniqllovchilar kiritiladi) va nominativ aniqllovchi (bunga izohlovchi kiritiladi)larga bo'linadi. To'ldiruvchiga odatdagi to'ldiruvchidan tashqari, subordinativ aloqadagi barcha boshqaruvli qo'shilmalar-moslashmagan aniqllovchi va holni kiritadi. 1) To'ldiruvchini subordinativ to'ldiruvchi, 2) infinitiv to'ldiruvchi; 3) atributiv va hol to'ldiruvchilarga ajratadi.

I.R.Raspopov gap bilan grammatik jihatdan bog'lanmagan so'z hamda konstruksiyalarini gap bo'lagi hisoblaydi va appektiv aloqa turiga kiritadi. Holni alohida bo'lak sifatida e'tibor qilmaydi unga aniqllovchining bir turi sifatida qaraydi.

Grammatika fan sifatida ajralib chiqqandan keyin ham logik qonunlar ta'sirida bo'lgan. Masalan, nemis tilshunosi Karl Bekker logik qonunlardan kelib chiqib, gapda to'rt bo'lak (sub'ekt, predikat, ob'ekt, atribut) ni ajratgan.

A.Vostokov, M.Ivanovlar ham gapda to'rt bo'lakni tan olganlar, hol to'ldiruvchiga qo'shib yuborilgan, undalma va kirish so'z gapning ikkinchi darajali bo'lagi hisoblangan. A.A.Dmitrievskiy va prof. G.Alparov gapda bitta bosh bo'lak-kesimni tan olganlar, egani to'ldiruvchi deb hisoblaganlar. M. Z. Zakiyev gap bo'laklari haqidagi ta'limot keyinchalik turkologiyaga, jumladan, tatar tilshunosligiga ta'sir qilganligini, bu haqidagi fikrlar K.Nosirov, G.Troyanskiy, J.Vadidlar tomonidan quvvatlanganligini, hattoki, G.Ibragimov, G.No'g'aybek sakkizta ikkinchi darajali bo'lak ajratganliklarini, undalma va kirish so'zlarini ham ikkinchi darajali bo'lak hisoblaganliklarini qaya qiladi. Ayni zamonda bu tasniflar yetarli ilmiy asosga ega emasligini to'g'ri ta'ktidlab, o'zining quydagi to'rt prinsipli taklif qiladi:

1) Gap bo'laklarining gapni uyushtirishdagi roli va ahamiyati asos qilib olinadi. Bu prinsipga ko'ra gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari ajratiladi.

2) Gap bo'laklarining sintaktik aloqa harakteri va ma'nolariga asoslanib, bosh bo'lak ega va kesimga, ikkinchi darajali bo'lak konkretlashtiruvchi, izohlovchi va modal bo'laklarga ajratiladi.

3) Konkretlashtiruvchi, izohlovchi bo'laklar tobe bo'lgan hokim komponentning qaysi so'z turkimi bilan ifodalanganligiga asoslanib, konkretlashtiruvchi bo'lak ikki turga aniqlovchi, to'ldiruvchi, izohlovchi bo'lak ham ikki turga izohlovchi, aniqlovchi ajratiladi. So'ngra, ot boshqaruvidagi bo'lak aniqlovchi, izohlovchi; fe'l boshqaruvidagi bo'lak to'ldiruvchi, aniqlovchi terminlari bilan atalib, konkretlashtiruvchi bo'lakning bir turi bo'lgan holni alohida ajratishga ehtiyoj yo'qligini uqtiradi.

4) Bo'laklar o'rtasidagi fikriy munosabatning harakteriga binoan modal bo'laklar undalma va kirish so'zlarga ajratiladi.

M.Z.Zakiyevning ushbu to'rt bosqichli tasnifi 1960 yillargacha davom etib kelgan ta'limotning sintezi dasa bo'ladi. U gap bo'lagi haqidagi fikirlarni rivojlantirgan. Maslan, uning bo'laklarni tasnif qilish haqidagi birinchi, ikkinchi va uchinchi birmuncha ilmiy asosga ega.

Ammo M.Z.Zakiyev gap bo'lagi haqidagi o'z tasnifi va prinsiplarini uzil-kesil prinsiplar emasligini, gap bo'laklari maxsus monografik rejada o'rganilishi kerakligini uqtirib o'tgan.

M.Z.Zakiyev kabi R.A.Sayfullayev ham o'zbek tilshunosligida undalma va kirish so'zlarni gap bo'lagi hisoblab, ularni uchinchi darajali bo'lak deb nomlaydi.

A.G'.G'ulamov gap bo'laklari ikki bosqichli tasnifga ega ekanligini, bu tasnifga ko'ra bosh va ikkinchi darajali bo'laklar ajratilishi maqsadga muvofiqligini uqtiradi. Uchinchi darajali bo'lakni ajratuvchi olimlarni (A.G.Rudnev, E.V.Krotevich, A.T.Abramov, M.Z.Zakiyev, A.R.Sayfullayev) tanqid qilib, o'z fikrini quydagicha xulosalaydi: "Yangi grammatikada gap bo'laklarining tradision tasnifi saqlanadi, undalma, kirish va kiritmalar gap bo'lagi sanalmaydi".

"Gap bo'lagining hususiyati,-deb ta'kidlaydilar A.G'.G'ulomov va M.A.Askarova,-unig shu butunlikdagi vazifasiga, boshqa elemenlar bilan bo'lgan munosabatiga qarab belgilanadi. Umuman, gap bo'laklarini, ularning turlarini belgilashda, bir qancha hodisalar (sintaktik munosabatdagi holat, grammatik

aloqaga kirishgan so'zlarning qaysi so'z turkumiga kirishi va formasi, gapdagi o'rni, intension xususiyat) hisobga olinadi".

A.Hojiyev va N.M.Muxin, L.K.Dmitriyeva, V.A.Beloshapkova kabi olimlarning fikrlariga asoslanib, gap bo'laklarini belgilashda, ularni gap strukturasida to'g'ri va ob'ektiv tayin etishda gapning pozitsion struktura ekanligidan..... hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan sintaktik pozitsiya tushunchasidan kelib chiqish maqsadiga muvofiq ekanligini uqtiradilar.

Umumtilshunoslikda mana shunday turli-tuman nazariy fikrlarning mafjudligidan, gap bo'laklari, xususan, ikkinchi darajali bo'laklar tahlilida ma'lum qiyinchiliklar paydo bo'lmoqda: ba'zi hollarda gapning u yoki bu bo'lagini tradision prinsiplar yoki keyingi vaqtlarda yo'l-yo'lakay berilgannazariy fikrlar asosida ajratish ham o'zini oqlamayapti. Masalan, E.B. Egorova to'ldiruvchi bilan aniqlovchini chegaralash munosabati bilan yozgan mahsus maqolasida sintaksisni o'rganishda gapning ikkinchi darajali bo'lagi tahlili ma'lum qiyinchilik tug'dirishi, ba'zi hollarda u yoki bu gap bo'lagini ajratishda mavjud tradision metod va usullar imkon bermasligini haqli ravishda uqtiradi.

Maqola muallifi ikkinchi darajali bo'laklarni tasnif qilishda quydagi uch prinsipni taklif qiladi: 1) tobe so'zning hokim so'zga leksik-grammatik qarashlilik. Bunda, masalan, aniqlovchining fe'l yoki sifatga tobe bo'lmasligi ko'zda tutiladi; 2) hokim komponent funksiyasida keladigan so'zning kategorial-semantik ma'nosi. Bunda sof predmet anglatadigan gaplargina aniqlovchi substantivlashgan otlar (aslida fe'l) to'ldiruvchi qabul qilishi kabilar e'tiborga olinadi; funksional-sintaktik kriteriy. Bunda nopredikativ qo'shilma tarkibidagi so'zlarning gap doirasida yana rellashishi nazarda tutiladi.

Muallif mana shu prinsiplardan kelib chiqib, predlojviy padej formasida shakllangan so'zlar gapda moslashmagan aniqlovchi sifatida baholanishi kerakligini ta'kidlaydi.

Bunday holatlar o'zbek tilida ham mavjud. Maslan, maktabda o'qimoq qo'shilmasida ot komponentining hol hisoblanishi, Tog'day og'ir bilak berdim...(H.O.) gapida "og'ir" ga bog'langan so'z "tog'day" ning aniqlovchi

emasligi, Olmaotaning olmasiday qip-qizildir yuzlaring.(G'.G') gapida Olmaotaning olmasiday birikmasining, Akamning kursdoshi "Pahtakor" komandasida o'ynaydi gapida Akamning kursdoshi, Kresloga o'tirdim; Savatni boshga qo'ydi; Xatni cho'ntagimda olib yuribman; Ukam karovatda uxlaydi gaplarida jo'nalish va o'rin-payt kelishigida shakllangan so'zlarning to'ldiruvchimi yoki holmi ekanligini; Dilbar qorachadan kelgan ko'krakdor, lo'ppigina qiz edi.(O) gapida Dilbar (ega) dan boshqa hamma so'zlarni bitta bo'lak hisoblash kerakmi, yo'qmi kabi holatlar yanada aniqlik kiritish kerak bo'lgan masalalardir.

Hullas gap uzoq vaqt hukundan, gap bo'laklari hukm qismlaridan ajratilmadi. Ba'zan bog'lama ham bo'lak hisoblanib, uch komponentli gap haqida fikr yuritiladi. Grammatika fan sifatida ajralib chiqqandan keyin ham gapda sub'ekt, predikat, ob'ekt, atribut terminlari ostida to'rt bo'lak ajratilaveradi. Bunda ham qisman logik qonunlar nazarda tutilgan.

Ba'zi olimlar egani inkar qilib, gapda bitta bosh bo'lak-kesimni ajratsalar, ba'zilar aniqllovchi va to'ldiruvchini e'tirof etib, holni bo'lak sifatida inkir qiladilar, uni goh to'ldiruvchiga goh aniqllovchiga qo'shib yuboradilar. Hattoki, ikkinchi darajali bo'lak ajratishdan voz kechish, ularning hammasini bir termin gap kengaytiruvchi, so'z kengaytiruvchi bilan atash taklif etilgan. Ba'zilar gapni umuman bo'laklarga ajratishga – ularni mavjud tradision terminlar bilan atashga ham qarshi (masalan, M.A.Muhin) . Gapda so'zlar o'rtasidagi sintaktik aloqa va munsabatlarning turlari maxsus o'rganilib konkret xulosalarga kelinmaganligidan, undalma, kirish so'z ham gap bo'lagi hisoblangan.

Umuman olganda, gapda ega, kesim, aniqllovchi, to'ldiruvchi, hol terminlari beshta bo'lakni ajratish ideyasi gap bo'lagi haqidagi ta'limotning asosini tashkil qiladi.

Traditsiyon gramatikada ega va kesimni tutashtiruvchi formatlargina bog'lama sifatida tan olinganligi uchun bog'lama sostavli kesim hosil qiladi degan tushuncha hanuzgacha hukmron, Bunda, birinchidan, faqat ega va kesimgina emas, gapning hamma bo'laklari ham (ega mustasno) tobe'lanuvchi vositalar bog'lamalar orqali sintaktik aloqaga kirishishi e'tibordan chetda qoladi; ikkinchidan,

bog'lamaning sostavli kesimini hosil qilishi har tamonlama anqlik kiritishni talab etadi-"kesim- bog'lama-sostavli kesim" formilasi mavhumdir. Chunki sostavli kesimning yoki umuman, sostavli bo'lakning asosiy komponenti hali bo'lak emas, bo'lakning elementidir. Qolaversa, gap bo'laklarini struktural tiplashtirishda yordamchi so'zlarning, affikslarning ham bog'lamalik funksiyasi ahamiyatga ega emas: affiks bog'lamali kesim-sodda, so'z bog'lamali kesim sostavli bo'ladi, degan xulosani faktlar tasdiqlamaydi. Chunki soddami, sostavlimi, umuman, bo'lakning hamma tiplari ham affiks bog'lama bilan shakllanaveradi, Masalan, *Sen o'qiysan; sen o'qigan ekansan* gaplarining kesimlari affiks bog'lamalari (-sen) **bilan shakllanishidan qattiy nazar, biri sodda, biri sostavlidir.** *Mening xalqim do'stlikni qadrlaydi* .gapida aniqlovchi, ega, to'ldiruvchi, kesim -ning, -im, -in, -di affiks bog'lamalari bilan shakllanganligidan emas, so'zning sintetik formasi bilan ifodalanganligi uchun sodda bo'laklardir. *U har kuni ijod bilan mashg'ul ekan (O,); Men delegatlarni kutishim kerak; Vali maktab tamon ketdi* gaplaridagi to'ldiruvchi (*ijod bilan*), kesim (*mashg'ul ekan, kutishim kerak*), hol (*maktab tamon*) so'z - bog'lamali bo'lganligidan emas, so'zning analitik formasi bilan ifodalanganligi uchun sostavli bo'lakdir.

Ma'lumki, yordamchi so'zlar gapda ikki xil funksiya bajaradi: Maslan, *chinor kabi umr*

qo'shilmasida *kabi* yordamchisi bir tamondan, *chinor* so'zi bilan munosabatga kirishib, uning gramatik manosi ifodalagan bo'lsa, ikkinchi tamondan, *chinor* so'zini *umr* so'ziga bog'lashga harakat qilgan. Birinchi aloqa (*chinor kabi*) anolotik forma doirasida bo'lib, gapda sostavli bo'lak sifatida ajratiladi. Xolbuki, bunday yordamchi so'z (*kabi*) ning bog'lanlik funksiyasi e'tibordan soqit qilingan bo'ladi. Ikkinchi aloqa gap yoki so'z birikmasidan bu aloqani yordamchi so'zni bog'lanlik funksiyasi namoyon bo'ladi-asosiy ro'l o'ynaydi.

Demak, gap bo'laklarining struktura jixatidan tiplashtirishdan bog'lanma kriteri bo'la olmaydi. U gap bo'laklarining yordamchi kompanenti vazifasida kelib, so'zning analitik formasini yoki analitik konstruksiya hosil qilinganligi(yuqoridagi birinchi aloqa; *chinor kabi*)

nuqtai nazaridan (materiel jixatdan) sostavli bo'lak ajratilishiga sabab bo'ladi.

Odatda gap bo'laklarining funksional turlari-birinchi bosqichda ifodalanishi (ifoda materiali) ikkinchi bosqichda tuzilishi uchinchi bosqichda o'rganiladi. Bu ishda biz ikkinch bosqichni aloxida bobda emas strukturali tasnifdan keyin, bo'laklarning struktural tiplari doirasida, umumiy tarzda eganing ifodalanishi demay, konkret holda sodda eganing ifodali materiali, sodda kesimning ifoda materiali kabi aspektlarda o'rganishi maqul ko'rdik. Bunda gap bo'laklarining ifodalanishi-inkor qilinayotgani yo'q. Bu aksincha mavjud takrorni bartaraf qilishga ham imkon beradi. Masalan ***Kelgan mehmon musiqachi ekan*** gapida ***musiqachi ekan*** kesim sifatida ajratilgach, ifodalanishiga ko'ra ot-kesim ekanligi aytiladi, endi uchunchi bosqichda sostavli ot –kesimligi, yetakchi komponenti ot bilan ifodalanganligi ham aytiladi. Ma'lumki, gap ham dastavval ikki xil aspekitda (kommunikatsiya va strukturasiga ko'ra) tasnif qilinadi. Darslik va ilmiy manbalarda bularning qaysinisini birinchi rejada o'rganish masalasi unchalik barqaror emas: ba'zan gapning mazmuni-kuzatilgan maqsadga ko'ra turi, gohida tuzilishiga ko'ra tiplari birinchi rejada o'rganilayotganligi ayon bo'ladi. Bizningcha, struktural tasnifning birinchi berilishi komunikativ tasnifni asosan, sodda gap aspektida amalga oshiriladi. Chunki qo'shma gaplar faqat darak, so'roq, buyruq gaplardan emas, ko'p hollarda bularning aralashmasidan tuziladi. Masalan, ***Xalqqa ayting, men aslo o'lganim yo'q*** (H.O) gapini maqsadga ko'ra darak gap deyishdan ko'ra, tuzilishi jixatidan uning qo'shma gapligi: birinchisi-buyruq, ikkinchisi darak gap ekanligi; ***Bahorda tabiat qaytadan yasharadi*** gapi tuzilishi jixatidan sodda, mazmunan darak gap ekanligini aytish maqsadga muvafiqdir.

Bir qarashda, gap bo'laklarini struktural tiplashtirish funksional tasnifga nisbatan ahamiyatli emasdan tuyiladi. Funksional turlar gap strukturasida shakllanib, o'zaro sintaktik munosabatga kirishadi-gap gap doirasida harakat qiladi. Gap bo'laklarining struktural tiplari gapning funksional bo'laklari doirasida yaratiladi. Demak, gap bo'laklarining struktural tiplari funksional bo'laklar kabi gap qurilishida bevosita ishtirok etmaydi. Biroq bundan, gap bolaklarini strukturasida jixatdan o'rganish ilmiy qiymatga, amaliy ahamiyatga ega emas, degan xulosaga

kelish xato bo'ladi. Chunki: 1.har bir til yoki nutq birligi ichki (ma'no) va tashqi formani dialektik birligidan iborat bo'lganidek, bo'lak ham sintaktik kategoriya sifatida ana shu ikki (funksional va struktural) hususiyatga ega; 2.gap bo'laklarining funksional turlari ham, struktural tiplari ham nutq hodisasidir, u gapda har hil nimalar bilandir ifodalangan, nimalardandir tuzilgan bo'ladi. Bino, uning qismlari (eshak, deraza kabilar) qanday materiallardan qurilishi mumkinligi, ular qanday sifat va xususiyatlarga ega ekanligini, ulardan qanday foydalanish kerakligini bilish muhim bo'lganidek, bo'lak funksiyadagi sintaktik birlikning qanday elementlardan tashkil topishini, bu elementlarning mustaqil bo'lak doirasida qanday elementlardan tashkil topishini, bu elementlarning mustaqil bo'lak sifatida yoki bo'lak doirasida qanday formalarda shakllanishi, qanday mazmunga egaligini bilishimiz ham muhim ahamiyatga egadir. Masalan. Predikativ-modal so'zlar gapda yo bo'lak (insonga baxt kerak) yoki bo'lakning yordamchi komponenti (men borishim kerak) funksiyalarda kela oladi.

Gap bo'laklarinig ifoda materiali nihoyat darajada boy va hilma-hil, ayni zamonda, juda murakkab bo'lib, ularni umumiy va xususiy belgilariga qarab taplashtirish, bu tip va modallarni tasvirlash nazariy va praktik ahamiyatga ega. Chunki bo'laklarning strukturasi, gapning grammatik shakllanishi-grammatik ma'noning ifodalinish usullari, gap formasi tushunchasi, hattoki, sodda gap murakkablashgan sodda gap va uni uni qo'shma gapdan farqlash kabi masalalar bilan ham bog'liq. Masalan, *Uning mashhur shoir Navoiy ekanligi ma'lum bo'ladi.*(O) *Navoiyligi ma'lum bo'ldi.* *Men aytdim:....aytib berdim quya qoldim; Do'stlari unga chinordek umr tilashdi (S.A); chinor kabi umr tilashdi; Qalamda yozdim; Qalam bilan yozdim; Maktabga ketdi; maktab tomon ketdi* gaplarida egalar (Navoiy ekanligi, Navoyiligi), kesimlar (aytdim, aytib berdim, aytib berib qo'ya qoldim), aniqlovchilar (chinordek, chinor kabi), to'ldiruvchlar (qalamda, qalam bilab), hollar (maktabga, maktab tomon)ning sintaktik va formada qo'llanilganligi farqsiz emas: ular nozik stilistik va ma'no ifodalash bilan aloqador. *Orqasini ko'chaga o'girib turgan Afandini bolalar do'pposlab ketishdi.* (Latifa) *Tog' dorivorlarini natural holda iste'mol qilish mumkin* ("Fan va turmush");m

iste'mol qilsa bo'ladi gaplarida kesimning sodda (*ketishdi, mumkin bo'ladi*) yoki sostavli (*do'pposlab ketishdi, iste'mol qilish ham mumkin, iste'mol qilsa ham bo'ladi*) ekanligi ma'no farqlash, bo'lak ajratish, hatto gap strukturasini chegarlash bilan bog'langan. Yoji *sen o'tqazib ketgan nihol o'sib bo'yingday bo'di* (H.O.) modelida sodda gaplarning aniqlovchi bo'lagi (*Sen o'tqazib ketgan*) polupredikativ qo'shilmalar bilan ifodalanganligi uchun murakkablashgan sodda gap deb qaralmoqda. Hullas, gap, uning bo'laklari va so'zning morfologik strukturasini, so'z birikmasi alohida o'rganilishi kerak bo'lgan sohadir.

Gap bo'laklari struktural jihatdan tiplashtirishga urinish tilshunoslikning keyingi yutuqlaridan bo'lib, bu kesim va uning strukturasini o'rganish masalasi bilan qanchalik bog'liq bo'lmasin, u bilan aralashtirilmasligi kerak. Chunki gap bo'laklari orasida kesim ham ifodalanishi ham strukturasini jihatdan yetarli darajada o'rganilgan. Kesim gapni markazlashtiruvchi eng aktiv, yadro bo'lak hisoblanganligidan bo'lsa kerak, uni tiplashtirish M.V.Lomonsov asarlaridayoq boshlangan edi.

Kesim bir va undan ortiq so'z bilan ifodalanishi, mavhum tarzda bo'sa ham, M.V.Lomonsov keyin A.A.Potebniya, A.M.Peshkovskiy, A.A.Fortunatov asarlarida sodda kesim, sostavli kesim terminlari bilan o'z aksini topgan. Masalan, A.A.Potebniya fe'llar ham formal ham leksik holatda kesimning materiali bo'lib kelishni ta'kidlab, sodda kesim sodda fe'l bilan, sostavli kesim, sostavli fe'l bilan ifodalanishi, sostavli termini gapning boshqa bo'laklariga nisbatan ham qo'llash mumkinligini ko'rsatgan.

Sodda va sostavli kesimning xususiyatlari A.M.Leshkovskiy tomonidan yanada aniqroq yoritilgan. Muallif so'zi va so'z birikmalari bilan ifodalangan kesimlarni bir-birdan farqlab, sodda (so'z), sostavli (so'z birikmasi) terminlari bilan nomlaydi, shu asosda gaplarni ham sodda kesimli gap vasostavli kesimli gaplarga ajratadi, sostavli kesimning bog'lama va mustaqil so'zlarning qo'shilishidan tuzilishini aytadi. Muallif sostavli va sodda kesimning farqiga e'tibor beradi: "Sostavli kesim sodda kesimga nisbatan ham forma, ham ma'no jihatdan murakkabdir".

V.V.Fortunatov gapda mustaqil va yordamchi so'zlar ham qo'llanilishini, ikkinchisi mustaqil so'zlarni o'zaro biriktirish bilan birga, o'zi tobelangan so'z bilan gapning sostavli bo'lagani hosil qilishini, chunochi, yordamchi so'z kesimga tobelansa, bog'lama bo'lib, sostavli kesimni, to'ldiruvchilarga qo'sholgan predloglar sostavli to'ldiruvchini tashkil qilishini uqtirgan.

A.A.Shaxmatov sostavli kesim termini o'rnida ikki kesimli qo'shaloq yoki qo'sh kesim termini qo'llaydi va bu termini ostida birdan ortiq so'zlardan tashkil topib, bir butun holda egaga tobelanadigan har xil qo'shilmalarni tushunadi.

V.V.Vinogradov A.A.Shaxmatovning o'zigach an'anaviy bo'lgan sostavli kesim o'rnida qo'shaloq kesim terminini olganligini tanqid qiladi. "Qo'sh kesimlilik termining mavjudligi o'quvchini noto'g'ri tassavur qilishga o'rgatadi",- deb yozadi.

Gap bo'laklarining struktursi (asosan, kesim va uning) strukturasi rus tilshunoslari tomonidan hozirgi zamon rus tili faktlari asosida qayta ishladi. Chunonchi, E.M.Gal'kina-Fedorchuk va boshqalarning darsliklarida kesim quydagicha tasnif qilgan: 1) Sodda fe'l-kesim. 2) Sostavli fe'l-kesim. 3) Murakkab fe'l-kesim. 4) Sodda ot-kesim. 5) Sostavli ot-kesim. 6) Murakkab ot-kesim. 7) Aralash sostavli murakkab kesim.

Mualliflar, dastavval, sodda kesimning bir so'z bilan ifodalanishi ko'rsatish bilan birga, uning murakkablashgan formasini ham ajratadilar.

Sostavli kesim quydagicha ta'riflanadi:

- 1) Sostavli fe'l-kesim shaxsli fe'l bilan infinitivning qo'shilishidan tuziladi.
- 2) Birinchi qismi grammatik ma'no ifodalaydigan ot bilan ifodalaydigan kesim sostavli oy-kesim deyiladi.
- 3) Uch va undan ortiq so'zlardan tuzilgan kesim murakkab kesim deyiladi. Sostavli murakkab kesim odatda, sostavli kesimning kengayishidan, yoyiq tusga kirishdan hosil bo'ladi.

A.N.Gvozdevning ham kesimni tiplashlashtirish prinsipi deyarli E.M.Gal'kina

Fedorchuklarning prinsiplaridan farq qilmaydi. U ham kesimning sodda va sostavli fe'l tipi bilan birga murakkab tipini ajratadi. Sodda kesimning bir mustaqil so'z bilan ifodalanishi, sostavli kesimning ikki qismidan asosiy va ko'makchi komponentlardan tashkil topishi, asosiy asosiy qisim va leksik ma'no, ko'makchi qisim gramatik ma'no ifodalashi, murakkab kesimning mustaqil so'zlardan tashkil topishi, sodda va sostavli kesimning asosiy xususiyatlarini o'zida aks ettirilishi uqtiriladi.

“Gramatika russkogo yazika” nomli akademik nashrda ifodalanishi va tuzilishi jixatdan kesimlar sodda (sodda ot-kesim, sodda fe'l-kesim), murakkab (murakkab ot-kesim, murakkab fe'l-kesim), sostavli kesimlarga kiritiladi: 1.Sodda kesimning bir so'z bilan ifodalanishi, shu bilan birga, *exal-exal*, *chital-chital*, *sidel-sidel* kabi takrorlar sodda kesimning murakkablashgan formasi ekani uqtiriladi. So'ngra shaxsli fe'l bilan infinitivning birikishidan tuzilsa, murakkab fe'l-kesim, ot bilan mustaqil ma'noli fe'llarning qo'shilishidan hosil bo'lsa, murakkab ot-kesim; ot bilan ko'makchi fe'llarning qo'shilishidan tuzilgan bo'lsa, sostavli kesim bo'lishi bayon etiladi.

Ko'rinadiki, yuqoridagi asosiy manbalarda strukturasiga ko'ra kesimning sodda, sostavli, murakkab yoki qo'shloq murakkablashgan tiplari ajratilgan bo'lasa-da, ular o'rtasidagi farqlar hali yetarli darajada chegaralanmagan. Chunonchi, akademik gramatikada murakkab fe'l-kesimga berilgan tarifning xuddi o'zi (shaxsli fe'l+infinitiv-murakkab fe'l kesim, 470-bet) unversitet darsligida sostavli fe'l kesimga berilgan (shaxsli fe'l+infinitiv-sostavli fe'l-kesim, 32-bet). Murakkab fe'l-kesimga ham, sostavli fe'l-kesimga ham bir xil misollar keltirilgan.

Kesimning strukturasini masalasi boshqa ko'pgina xalqlar tillariga bag'ishlangan tatqiqotlarda ham ancha chigal va murakkab.

E.M.Bekova bengal tilidagi bosh bo'laklarga bag'ishlangan tatqiqotida kesim va uning strukturasini haqida fikr yuritarkan, avvalo, uning material tamoni bengal tilida aniq tayin etilmaganini, masalan, qo'shma so'z, so'z qo'shilmalari, so'z birikmalari bilan ifodalangan kesimlar farqlanmanyotganligini takitlaydi.

Bo'laklarning material tamoni tahlil qilib u bengal tilida faqat kesimni (egani emas) strukturasiga ko'ra sodda va sostavli (murakkab termini ham sostavli terminiga sinonim qilib qo'llanilgan) tiplarga ajratgan, "kesimning murakkab tipi bengal tilida yo'q" –degan xulosaga kelgan. Shu munosabat bilan akademik gramatikada berilgan kesim tasnifi uzl-kesil va mukammal emasligini ham aytadi.

Shundan keyin sodda kesimning bir so'z bilan, sostavli kesimning so'z qo'shilmalari bilan ifodalanishini ko'rsatib, bengal tilidagi kesimlarni mexanik tarzda strukturasiga ko'ra sodda va sostavli tiplarga ajratish, shu yo'l bilan masalani hal qilish juda qiyin, chunki shunday so'z qo'shilmalari borki, ular bilan ifodalangan kesimlarni na sodda na sostavli turga tenglashtirib bo'ladi.

Haqiqat ham, E.M.Bekovning bu fikrini o'zbek tilidagi faktik materiallar ham tasdiqlaydi.

A.G.Grudnev rus tilidagi sostavli kesim ustida olib borgan tatqiqotda E.M.Bekova kabi kesimning sodda va sostavli yoki murakkab tiplarini ajratadi.

Gap bo'lagi va uning tasnifi turkologik adabiyotlarda ham o'z aksini topa boshlagan. M.Kozimbek gapning bosh bo'laklarini sodda va sostavli turlarga ajratib, sostavli kesim (jumlai xabariya)ning har qanday tub, yasama yoki sostavli fe'llar bilan ifodalanishini (*Podsho amr ayladi* kabi). Hamma fe'llar o'ziga bog'langan so'z bilan birga sostavli kesim vazifasida qo'llanishini (*Sa'diy xush so'ylamish: Bu imorat bik buyukdir* kabi) aytadi Muallif o'z asarining morfologik qismida "Sostavli fe'llar ot bilan ko'makchi fe'l yoki boshqa fe'llarning birikishidan tuziladi" deydi-yu, biroq sostavli kesimni belgilashda o'z fikriga asoslanmaydi. Natijada olimning bu haqdagi fikrlari birmuncha noaniqlashib qoladi: u hamma fe'llarni (soddami, sostavlimi), birdan ortiq so'zdan tashkil topgan har qanday qo'shilmalarni (uningsostavi erkinmi, bog'limi) sostavli kesim hisoblaydi.

K.Nosirov, A.Troyanskiylar tatar tili gramatikasida qo'shma kesim (xabar) sarlavhasi ostida hech qanday tarifsiz quyidagi misollarni berganlar: *Nomani oldi, o'qidi, kuldi; Men yozdim, yozaman, yozayapman*, Demak, ular uyushiq kesimni qoshma kesim deb tushunganlar.

T.Makarovning “Tatarskaya gramatika kavkazokogo nerechiya”, P.T.Melioranskiyning “Kratkaya gramatika kazax-kirgizokogo yazika”, Oltoy missionerlari tomonidan tuzilgan “Gramatika altayskogo yazika”, jirlarida gap bo’laklari, jumladan, kesimning strukturasida ma’lumot berilmaydi.

N.K.Dmitriyev, A.N.Kononov, N.A.Baskakov, A.S.Safayevlarning gap bo’laklarining strukturasi haqidagi fikrlari deyarli bir xil. Ular kesimning sodda, sostavli va yoniq tiplarini ajratadilar.

U.S.Tulegenov qozoq tilida fe’l-kesimning murakkab va sostavli (slojnosostavnoe), ot-kesimning sostavli tipini ajratgan, murakkab sostavli fe’l-kesimning fe’lli so’z birikmalari bilan ifodalanishini, sostavli ot-kesimning “ot+bog’lama” modelida tuzilishini, izofali konsturaksiyalar bilan ifodalanishini (*aql-odam ko’rigi, sabr-aqlning sherigi* kabi)ko’rsatgan.

M.B.Balakaev fe’l-kesimning qo’shma (U.S.Tulegenovda murakkab sostavli), ot-kesimning qo’shma (Tulegenov sostavli tiplarni ajratgan). Boshqacha aytganda, U.S.Tulegenovda kesimning “fe’l+fe’l” formasi uchun murakkab sostavli, ot+ot va ot+fe’l (bunda fe’l sof bog’lama) formalari uchun sostavli ot-kesim terminlari qo’llangan bo’lsa, M.B.Balakayev “fe’l+fe’l” uchun qo’shma fe’l-kesim, “ot+ot” uchun qo’shma ot kesim, “ot+fe’l” (fe’l+bog’lama) uchun sostavli kesim terminlarini olgan.

V.V.Reshetov ot-kesimning sostavli (ot+*bo’lmoq, yemoq*) fe’l-kesimlarning sostavli (fe’l+fe’l) va qo’shma (ot+fe’l) tiplarini ajratadi.

Kesimni maxsus o’rgangan M.Z.Zakiyev strukturasi ko’ra uni sodda (sodda ot, sodda fe’l-kesim), murakkab (murakkab ot va murakkab fe’l-kesim), sostavli (sostavli ot va sostavli fe’l-kesim) tiplarga ajratadi, sodda kesim bir so’z bilan, murakkab kesim turg’un ajralmas so’z birikmalari bilan, sostavli kesim mustaqil so’z+ko’makchi fe’l yoki bog’lama bilan ifodalanishni uqtiradi.

“O’zbek tili” ning mualliflari tuzilishiga ko’ra kesimni *sodda, qo’shma, birikmali* turlariga ajratib, sodda kesimning mustaqil so’z-yordamchi so’zlar, birikmali kesimning so’z birikmalari, turg’un bog’lamalar bilan ifodalanishi ko’rsatganlar.

S.Usmonov so'zining moefolgik strukturasining aniqlab, so'z tip va formalarning gap bo'laklari tuzilishiga bo'lgan munosabatiga doir ham to'xtatiladi, sodda va qo'shma so'zlar sintaktik formalarni sodda bo'lak sifatida ajratadi. Maslan, "*Konkurskomissiyasi yaxshi asarlarni belgilagan mukofatlarga taqdim qildi*" gapida *konkurs komissiyasi* –murakkab ega, *taqdim qildi* –murakkab kesim bo'lishini uqtiradi. J.Omonturdiyev strukturasiga ko'ra kesimning sodda, sostavli, murakkablashgan formalarini ham tasvirlaydi.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" (1966) ning akademik nashirda tuzilishga ko'ra eganing *sodda, birkmalari*; kesimning *sodda, birikmali, sostavli, qorishiq, tarkibli* tiplarga ajratiladi. Sh.Sh.Shoazizov eganing so'z va so'z birikmasi bilan ifodalanishiga asoslanib, sodda va birikmali tiplarga ajratgan.

H.Abdullayev so'z qo'shilmalarini leksik va sintaktik birliklarga ajratadi. Qo'shma, juft, tarkibli so'z, frazealogik ibralar bilan ifodalangan bo'lakni sodda; sintaktik birliklar bilan ifodalangan bo'lakni sostavli, murakkab, kengaytirilgan bo'laklar sifatida ajratishni taklif qiladi.

Lingvistik adabiyotlarda faqat kesim sostavli bo'lishi qayd qilinayotganligini, ammo kuzatishlar sostavli kesimga xos belgilar gapning boshqa bo'laklarida ham mavjudligini, murakkab bo'lak ajralmas sintaktik birliklar (*otalar so'zi -aqlning ko'zi, Bir ko'zi bilan tashqariga qaradi, yaxshi buzoq ikki onani emadi* kabi) bilan, kengaytifilgan yoki yoyiq bo'lak fe'lning funksional formalari (*Razzoq hozirgina savod darsi o'tkazilgan xonaga kirdi; Mirzakarimboy xotiniga dasturxon olib chiqishi buyrdi* kabi) bilan ifodalanishi ta'kidlaydi.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" (1979) nomli qo'llanmada gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari strukturasiga ko'ra *sodda, murakkab, sostavli kesimga nisbatan* tipllariga ajratilgan. A.R.Sayfullayev ham gap bo'laklari *sodda, sostavli, murakkab* tiplarga ajratadi va sodda bo'lakning so'z birikmasi bilan, murakkab bo'lakning birdan ortiq so'zdan tashkil topgan, bir tushunchaanglatadigan birliklar bilan ifodalanishni ko'rsatadi. A.Madaminov gap bo'laklarining tizilishiga ko'ra *yakka, murakkab va predaktiv konsturaksiyali* bo'lishini, predikativ

konstruksiya- “ega-kesim” munosabatidagi qo’shilmalar sostavli kesimning yetakchi komponenti vazifasida ham qo’llanishi uqtiradiki, bunda kesimning sostavli tipning mavjudligi ham o’z-o’zidan e’tirof etildi. Shu bilan birga muallif “Turkiy tillarda, jumladan, o’zbek tilida gap bo’laklarining sostaviga ko’ra turlarini kengroq yoritish....tilshunoslikning kechiktirib bo’lmaydigan masalardan biri sanaladi” degan adolatli bir fikrni o’rtaga tashlaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kesim gap bo’laklari orasida olimlar e’tiborini o’ziga ko’p jalb etadigan va har tomonlama ishlagan bo’lak bo’lishiga qaramay, uni tiplashtirishda aniq bir umumiy fikrga kelinmagan.

Rus klassik tilshunoslarning tadqiqotlarida primiti bo’lsa ham, o’z aksini topa boshlagan, biroq turli sabalar natijasida olimlar e’tiboridan chetda qotib qolgan gap bo’laklarining strukturasi masalasi, asosan, 1960 yildan boshlab, ayrim olimlar diqqatini yana jalb etgan.

Gap bo’laklarini struktural o’rganish tarixini uch bosqichga bo’lish mumkin: kesimning, bosh bo’laklarning strukturasini o’rganish. Tilshunoslikda dastavval kesimning strukturasi o’rganish an’anaga aylangan; gapning boshqa bo’laklari strukturasi o’rganish analogiya yo’li bilan kesimdan boshlangan. Tuzilishiga ko’ra ikkinchi darajali bo’laklarni tiplashtirishga urinish-so’nggi g’oyadir.

Gap bo’laklarining struktural tiplari mahsus ishlanmaganligi, ilmiy-nazariy asoslari yaratilmaganligi tufayli darislik va progeammalardan (kesim bundan mustasno) qat’iy o’rin olgan emas.

Gap bo’laklarining struktural tiplarga nisbatan qo’llanilayotgan terminlar, chunonchi, bir hodisaning bir necha atamaga ega bo’lishi, masalani o’rganishi g’oyat qiyinlashtiradi. Bog’lama va bog’lama funksiyadagi vositalarning kriteriysi va sintaktik kategoriya sifatida maxsus ishlanmaganligi tadqiqotchilarni gap bo’laklarining strukturasi to’g’ri tiplashtirish imkoniyatidan, ma’lum darajada, mahrum qilib kelgan.

1.2.ANIQLOVCHINING TURLARI VA IFODALANISHI HAQIDA MA'LUMOT

Aniqlovchi va yning ifodalanishi. Aniqlovchi ot bilan ifodalanagan, shuningdek, bo'lak yoki bo'lak bo'laklarining, undalma yoki kirish birikmalarining kengaytiruvchisidir. To'ldiruvchi kabi aniqlovchi ham so'z kengaytiruvchisi sifatida gap tarkibida qatnashayotgan otlarning lug'aviy valentligini to'ldiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi va gap konstruktiv tuzilmasi o'rin egallamaydi. Uning lisoniy satrga aloqadorligi muayyanlashuvchi otning qanday valentligiga muvofiq kelishi va uni sintaktik aloqa bilan voqelantirishidir.

Aniqlovchi so'z kengaytiruvchisi ekan, u istagan gap bo'laklariga tobelanishi mumkin:

1. Kesim aniqlovchisi: Nilufar a'lochi talaba.
2. Ega aniqlovchisi: Kimning gapi to'g'ri.
3. Hol aniqlovchisi: So'lim va xushhavo vodiya o'rnashdilar.
4. To'ldiruvchi aniqlovchisi: Bizning yorni ko'rgan bormi(
5. Undalma aniqlovchisi: Xayr endi, yashil vodiya, xushmanzara tog'.

Aniqlovchi mustaqil holda biror bo'lakka bog'lanishi ham, kengaytiruvchilar tarkibida kelishi ham mumkin. Qiyoslang:

Bir yonda lojuvard Bahri muhit bor
Bir yonda zafaron Sahroyi kabir
Bir yonda oq sochli tog'lar purviqor
Sening toleinga o'qiydi takbir

Misralardagi lojuvard so'zi Bahri muhit (ega), zafaron so'zi esa Sahroyi kabir (kesim) so'ziga aniqlovchi bo'lib, bo'laklar kengaytiruvchisi sifatida namoyon bo'lgan. Uchinchi misradagi sochli so'zi tog'lar (ega) so'ziga tobelangan bo'lib, o'z navbatida oq so'zini o'zi tobelangan.

Aniqlovchi gapda turlicha ifodalanishga ega. Aniqlashning o'ziga xosligiga ko'ra, aniqlovchining materiali ham, shunga muvofiq, uning kengayuvchi so'z bilan sintaktik aloqasi ham turlicha bo'ladi.

Aniqlovchining turlari. Predmetning qandayligi, tusi, xususiyati, maza-ta'mi, shakli, tabiati kabilarni muayyanlashtirish lozim bo'lganda aniqlovchi sifat, sifatdosh, ba'zan ot turkumlaridan bo'lgan so'zlar bilan ifodalanadi. Biror shaxs yoki predmetga qarashlilikni anglatish zaruriyati bo'lganda aniqlovchi ot yoki ot o'rnidagi so'z bilan ifodalanadi. Shunga ko'ra, aniqlovchi ikki xil bo'ladi:

1. Belgini muayyanlashtiruvchi aniqlovchi (sifatlovchi)

2. Qarashlilikni muayyanlashtiruvchi aniqlovchi (qaratuvchi).

Bunday birikma "sifatlovchi X sifatlanmish" qolipida tuziladi, ikkinchi – hokim a'zo odatda ot leksema bilan ifodalanadi, birinchi – tobe a'zo ot leksemaning biror belgisini bildiradi; birikma esa bir butun holda ma'lum bir belgisi aniqlangan predmet tushunchasini anglatadi. Sifatlovchi bilan sifatlanmishning tobe sintaktik aloqasi ko'paytiruv alomatini (X) yozib ko'rsatiladi (Boshqa o'rinlarda ham tobe sintaktik aloqa shu alomat bilan ko'rsatiladi):

predmetning belgisi ma'nosini anglatadigan leksemashakl	X	predmet ma'nosini anglatadigan leksema
sifatlovchi		sifatlanmish
s i f a t l o v c h i l i birikma		
(a z i m t o l -) -		

Sifatlovchi vazifasida predmetning turli belgisini bildiradigan leksemashakl keladi:

1) sifat leksemashakl: *yangi ko'rpa-* , *qovurma chuchvara-* , *mehribon ayol-* , *qoramtir suv-* kabi;

2) son leksemashakl: *uch hafta-* , *ikki yigit-* , *sakson yosh-* , *uch-to'rt kishi-* , *ikkinchi qavat-* kabi;

3) olmoshlarning sifat tabiatli turlari: *shu kecha-* , *bir necha daqiqa-* kabi;

4) ot leksemaga tobelanib kelgan ravish leksemashakl: *ancha vaqt-* , *juda ko'p odam-* kabi;

5) predmetning belgisini ifodalash uchun ishlatiladigan ot leksema: *baxmal do'ppi* -, *sopol tovoq* -, *shoyi ko'y lak* -, *oltin yaproq* - kabi;

6) fe'lning sifatdash leksemashakli: *o'tgan hafta* -, *bezatilgan patnis* -, *yozilayotgan hikoya* - kabi;

7) ot leksemaga *-day*, *-dagi* shakl yasovchisini qo'shib hosil qilingan leksemashakl: *oydek yuz* -, *cho'g'day ko'z* -, *ariqdagi suv* -, *tomorqadagi jo'xorizor* - kabi. (O'xshatish ma'nosini ifodalovchi *-day* morfemasi qo'shilgan ot leksemashakl sifat leksemaga ham sifatlovchi bo'lib keladi: *musichaday beozor* -, *to'sday tim qora* - kabi).

Leksemashakl tarkibida sintaktik aloqani ta'minlovchi morfema qatnashmaydi, leksemashakl 'sifatlovchi' sintaktik semasini qo'shish bilan yuzaga keladi.

Leksemashakl tarkibida uning sifatlovchi vazifasida kelishini ta'minlovchi morfema qatnashadi, lekin shakl o'zgartiruvchi emas, balki shakl yasovchi qo'shiladi. Demak, shakl yasovchi morfemalarning ma'lum bir turlari sintaktik mohiyatga ega: sintaktik aloqani, sintaktik vazifani ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlarda sifatlovchining sifatlanmishiga sintaktik tobelanishi bitishuv aloqasi deyiladi. Ayrim adabiyotlarda sifatlovchiga hech qanday morfema qo'shilmaydi degan fikr ham bildiriladi. Yuqoridagi tasvirdan ayon bo'ladiki, bunday fikr sifatlovchining ma'lum bir turlariga nisbatan-gina to'g'ri. Lekin shunday ifodalarda ham ayrim morfemalar qatnashadi. Masalan, sifatlovchi vazifasida kelgan sifat, ravish leksemashakl tarkibida *-roq* (*eskiroq palak* -, *olisroq manzil* - kabi), *-gina* (*yupqagina muz* -, *shinamgina gulzor* -, *anchagina yo'l* - kabi) qatnashadi. Bunday morfema sintaktik vazifaga nisbatan betaraf. Demak, 1- - 5-bandlarda tasvirlangan leksemashakllar tarkibida sintaktik vazifani ta'minlovchi morfema qatnashmaydi, lekin o'rni bilan boshqa tur morfema qo'shilishi mumkin.

Tasvirlangan sifatlovchi sifatlanmishi bilan bitishuv usulida tobelanadi deyish to'g'ri, chunki bu yerda sifatlovchi (birikmaning tobe a'zosi) sifatlanmishiga

(birikmaning hokim a'zosiga) sintaktik vazifani ta'minlaydigan morfema qo'shilmagan holda, to'g'ridan to'g'ri sintaktik bog'lanadi.

Tasvirlangan leksemashakllar tarkibida sintaktik vazifani ta'minlovchi morfema qatnashadi, lekin shunga qaramay bu yerda ham sifatlovchi sifatlanmishiga bitishuv usulida tobelanadi deyiladi.

Ko'rinadiki, sintaktik tobelanishning bitishuv aloqa turini boshqacha ta'riflash lozim: Birikmaning tobe a'zosi hokim a'zosiga sintaktik vazifani ta'minlaydigan shakl o'zgartiruvchi qo'shilmagan holda bog'lansa, bitishuv aloqasi deyiladi.

Sifatlovchi-sifatlanmish birikmasida sifatlovchining o'zni muqim: bevosita sifatlanmishning oldida joylashadi; bu tur birikma a'zolarida tartib erkinligi ham yo'q. Lekin sifatlovchi-sifatlanmish aloqasida tartib hal etuvchi omil deyish asosli emas. Hal etuvchi deb semantik omilni ta'kidlash lozim: predmet tushunchasini anglatadigan birlik keyin, uning belgisini bildiradigan birlik oldin joylashadi. Ikkinchi o'rinda grammatik omil turadi: oldin tobe grammatik shaklli a'zo joylashadi. Asli tartibni ana shu ikki omil belgilaydi. Fonetik omilni ham tartibdan muhim belgi deb ta'kidlash o'rinli: birikmaning a'zolari nutqda o'z urg'usidan tashqari yaxlitlovchi urg'u ostiga birlashadi, bunday urg'u birikmashakl hokim a'zosining urg'usi asosida yuzaga keladi:

a z i m t o l l a r n i

Sifatlovchi aniqlovchi quyidagicha ifodalanadi:

- 1.Sifat bilan: *A'lo* mamlakatning *a'lo* farzandi, bilib qo'yki, seni vatan kutadi.
- 2.Sifatdosh bilan: *Oqar* daryo oqmasdan qolmas.
- 3.Ravish bilan: *Kechagi* noxush manzarani bir umr unutmasa kerak.
- 4.Son bilan: *O'ninchi* yillarning sargardonligi.
- 5.Belgi aniqlovchisi (sifat vazifasidagi) ot bilan: *anor* yuz, oltin kuz.
- 6.Olmosh bilan: *Qaysi* yuzim bilan unga qarayman?

Qaratuvchi aniqlovchi quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

1.Ot yoki ot o'rnidagi so'z: 1.*Ona yerning* otash qaridan, o'g'lim degan nido keladi.(E.V.)2. *Mening* ikki onam bor.

2.Otlashgan so'z bilan: 1.*Ko'pning* duosi ko'l 2.*O'qiganning* tili ko'p uzun bo'ldi.

Aytilganidek, aniqlovchi mohiyatan uch xil bo'ladi: sifatlovchi, qaratuvchi, izohlovchi.

Sifatlovchi. Sifatlovchi birikmada tobe uzv (sifatlovchi) xokim uzvning biror xususiyatini aniqlab keladi va unga tobe aloqaning bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Sifatlovchining qo'llanishida ikki holatni farqlash lozim.

1.Sifatlovchining sifatlanmish ma'nosini toraytirishi-muayyanlashtirishi: Oq ilon, oppoq ilon, oydinda yotganing qani. Bunda oq so'zi bilan ifodalangan sifatlovchi sifatlanmish zamiridagi tushunchani ajratish, farqlash vazifasini bajargan (qora ilon, sariq ilon).

2.Sifatlovchining ta'kid vazifasitni bajarishi. Bunda ajratish, muayyanlashtirish vazifasi kuzatilmaydi: oppoq qor, oq sut bergan ona, oq paxta. Bu holat nutqiy jihatdan me'yoriy bo'lsa-da, lisoniy nuqtai nazardan ortiqlik sanaladi. Chunki qor, sut, paxta tabiatan oq bo'lganligi sababli uni yana aniqlovchi bilan takrorlab o'tirishga hojat bo'lmaydi.

Sifatlovchi vazifasida tabiatan tobe uzvlikka xoslangan so'zlar kelganligi bois, u sifatlanmishga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Sifatlovchi vazifasida kelgan otlar ham «tobega xos»lardek xususiyat kasb etib, hokim uzvga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi.

Sifatlovchi qaratuvchili birikmaga kengaytiruvchi bo'lganda, ikki holat farqlanadi. Sifatlovchi bunda qaratuvchili birikmaga butunicha yoki undan faqat qaratuvchiga kengaytiruvchi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Quyidagi gaplarda sifatlovchi kengaytiruvchining kengayuvchiga munosabatini

Qiyoslaymiz: yangi xo'jalik rahbari - yangi xo'jalik rahbari. Birinchi gapda yangi so'zi xo'jalik so'zining kengaytiruvchisi bo'lib, bu hokim so'zning

qaratqich kelishigini olishini taqozo etadi. Keyingi birikuvda yangi sifatlovchisi xo'jalik rahbari birikmasining kengaytiruvchisidir.

Sifatlovchilar ketma-ket kelib sifatlovchilar zanjirini tashkil etadi. E'tibor bering: Sifatlanmish uyushiq holatda bo'lganda sifatlovchining barcha uyushgan birikmalarga yoki ularning biriga tegishli ekanligi anglashilmay qoladi. Bunda belgining qaysi birlikka xos ekanligi matndan, biriktiruvning valentlik imkoniyatlaridan va boshqa nutqiy omillardan ayon bo'lib turadi.

Sifatlovchi va sifatlanmish orasiga izofa shaklida - sifatlanmish-sifatlovchi ko'rinishini olgan bo'lish mumkin: majnuni gumrox, devonai Mashrab, oynai jahon va boshqalar. Bunday birikuvlar o'zbek nutqi nuqtai nazaridan sifatlovchili birikma sifatida qaralishi ma'qul emas.

Sifatlovchi va sifatlanmish tobelanishida uning birikuv omillari MJSH tartibida bo'ladi. Chunki sifatlovchi maxsus ko'rsatkichlarsiz tobe uzv maqomini egallaydi. Shu boisdan unda shakliy omil o'ta kuchsizlanadi. Sifatlovchi va sifatlanmish orasiga so'z kiritish, ularni bir-biridan uzish imkoniyati bo'lmaganligi, bog'lanishda sintaktik pozitsiya ustivor ahamiyatga ega bo'lganligi bois joylashuv omili faollashadi. Birikuvda ma'noviy omil birinchi o'rinda bo'ladi. Uning joylashuv omilidan ustunligi birikuvchi unsurlarning ma'noviy muvofiqligi har doim ham ahamiyatli bo'lib qolishi bilan belgilanadi.

Qaratuvchili birikma

Bunday birikma "qaratuvchi X qaralmish" qolipida tuziladi; birinchi a'zo ot, ot tur yoki otlashib kelgan leksema bilan ifodalanadi, qaratqich kelishigida bo'ladi. Shunday leksemashakl sintaktik jihatdan ikkinchi a'zoga bog'lanadi. Ikkinchi a'zoga birinchi a'zo bilan sintaktik bog'lanish tufayli nisbatlovchi qo'shiladi; nisbatlovchidan oldin sonlovchi qatnashadi, birlik yoki ko'plik sonlovchisi obyektiv voqelikka ko'ra tanlab qo'shiladi; turlovchi esa birikmaning boshqa bir leksema yoki birikma bilan sintaktik bog'lanishi natijasida qo'shiladi, shunga ko'ra ikkinchi a'zo (birikma yaxlitligicha) asli leksema (birikma) holatida bo'ladi, leksemashaklga (birikmashaklga) keyingi sintaktik bog'lanish natijasida aylanadi: *hovlining o'rtasi-* , *cholning nabirasi-* kabi:

predmet ma'nosini anglatadigan leksema	son- lovchi	qarat- qich keli- shigi	X	predmet yoki belgi ma'nosini anglatadigan leksema	son- lov- chi	nis- bat- lov- chi	-
l e k s e m a s h a k l				l e k s e m a			
q a r a t u v c h i				q a r a l m i s h			
q a r a t u v c h i l i b i r i k m a							
(ch o l n i n g n a b i r a s i)-							

Ma'no munosabati jihatidan qaralmishdan anglashiladigan predmet yoki belgi qaratuvchidan anglashiladigan predmetga (predmet tasavvuridagi belgi-ga) tegishli ekani (nisbat berilayotgani) ifodalanadi: o'rta hovliga, nabira cholga tegishli.

Qaratuvchili birikma ifodalaydigan ma'nolar deb xoslik, butunning bo'lagi, to'dadan ajratilgan qism, o'ringa, vaqtga munosabat ma'nolari ta'kidlanadi. Asli bu ma'nolar – birikmaning ma'nolari emas, balki qaratuvchi, qaralmish bo'lib keladigan leksemalardan anglashiladigan ma'nolar.

Qaratuvchili birikmada turlovchilar paradigmasining bir vakili - qaratqich kelishigi bilan nisbatlovchilar paradigmasi morfemalari orasidagi bog'liqlik namoyon bo'ladi. Bunda kelishik sintaktik aloqani ta'minlashda qatnashadi va sintaktik vazifa ko'rsatkichi bo'ladi; nisbatlovchi esa sintaktik aloqani ta'minlashda qatnashadi, lekin shakl o'zgartiruvchi ekanidan qat'i nazar, sintaktik vazifaga nisbatan betaraf bo'ladi.

Qaralmishga nisbatlovchi qaratuvchidan anglashiladigan shaxs, son, modal ma'nolarga muqobil holda tanlab qo'shiladi. Qaralmishga qaysi nisbatlovchi qo'shilishini qaratuvchining kelishik shakli emas, balki kelishik qo'shiladigan asos, shu asosdan anglashiladigan shaxs, son, modal ma'no belgilaydi: mutanosiblik asosdan anglashiladigan grammatik ma'nolar bilan morfema (nisbatlovchi) ifodalaydigan ma'nolar orasida voqe bo'ladi. Qaratuvchi tarkibidagi kelishik shakli va qaralmish tarkibidagi sonlovchi mutanosiblik aloqasida

qatnashmaydi. Mutanosiblik qaratuvchi bilan qaralmishning grammatik shakllarida voqe bo'lmaganligi sababli bunday birikma a'zolari orasidagi sintaktik aloqa moslashuv emas, balki *muvofiglashuv* deyiladi (Rus tilshunosligida ega bilan kesim orasidagi bunday aloqa *koordinatsiya* deb nomlanadi: lot. *co(n)* - 'birgalikda', *ordinatio* - 'tartibli joylashuv'. Bunday sintaktik aloqaga *sootvetstviye* ham deyiladi).

Qaralmishga qaysi nisbatlovchining qo'shilishi qaratuvchining qanday turkum leksemasi bilan ifodalanishiga, qisman uning grammatik shakliga bog'liq:

1. Qaratuvchi kishilik olmoshi bilan ifodalanganida qaralmishga shu olmoshga mutanosib nisbatlovchi qo'shiladi: *mening uy + im-* , *mening uylar + im-* , *sening uy + ing-* , *sening uylar + ing-* , *uning uy + i-* , *uning uylar + i-* , *bizning uy + imiz-* , *bizning uylar + imiz-* kabi.

2. Qaratuvchi ot leksema bilan, boshqa turkum leksemalarining ot tabiatli turi, shuningdek otlashib kelgan holati bilan ifodalanganida qaralmishga III shaxs nisbatlovchisi qo'shiladi:

a) ot leksema bilan ifodalanishi: *uyning devor +i-* , *uylarning devor +i-*, *uyning devorlar + i -* , *uylarning devorlar + i-* kabi;

b) fe'lning otdosh shakli bilan ifodalanishi: *rozi qilishning yo'l + i-* , *rozi qilishning yo'llar + i-* kabi;

d) olmoshning ot turlari bilan ifodalanishi: *kimning kitob + i-* , *kimlar-ning kitob + i-*, *kimning kitoblar + i-*, *kimlarning kitoblar + i-* , *allanarsa-ning sharpa + si-* , *allanarsalarning sharpa + si-* , *allanarsaning sharpalar + i-* , *allanarsalarning sharpalar + i-* kabi;

e) boshqa turkum leksemasining otlashib kelgan holati bilan ifodalanishi: *yaxshining fazilat + i-* , *yaxshilarning fazilat + i-*, *yaxshining fazilatlar + i-* , *yaxshilarning fazilatlar + i-* ; *buning qilig' + i-* , *bularning qilig' + i-* , *buning qiliqlar + i-* , *bularning qiliqlar + i-* kabi;

f) ikki va undan yuqori miqdorni anglatadigan miqdor son, shuningdek *hamma-* kabi leksema bilan ifodalanishi: *o'ning yarm + i-* , *hammaning fikr + i-* kabi.

3. Qaratuvchi bo'lib ko'plik ma'nosi ifodalanadigan jamlovchi son, *hamma-* kabi leksema kelganida kelishikdan oldin odatda ko'plik nisbatlovchisi qo'shiladi: *ikkala + miz + ning istag + imiz-* , *ikkala + ngiz + ning istag + ingiz-* , *ikkala + si + ning istag + i-* ; *hamma + miz + ning istag + imiz-* kabi.

Qaratuvchi tarkibidagi nisbatlovchidan ko'rinib turibdiki, bunday qurilma asli uch a'zoli: *bizning ikkalamizning istagimiz-* kabi. Bunday uch a'zoli qurilma alohida ta'kidlash zarur o'rinda-gina ishlatiladi; boshqa o'rinlarda ikki a'zoli qurilma ishlatiladi, shu yo'l bilan uslubiy g'alizlik, ortiqchalik bartaraf qilinadi.

Bunday qaratuvchi bilan qaralmish tarkibiga nisbatlovchilarning ko'plik shakli o'zaro moslashib qo'shiladi. Bu yerdagi moslashuv muvofiqlashuv aloqasi tarkibida ichki hodisa sifatida voqe bo'ladi.

4. Yuqoridagi bandeda tasvirlangani kabi hodisa qaratuvchi *o'z-* ta'kid birligi bilan ifodalanganida ham voqe bo'ladi; yuqoridagi ifodalanishdan asosiy farqi shuki, bu yerda nisbatlovchilarning birlik shakllari ham ishlatiladi: *o'z + im + ning uy + im-* , *o'z + imiz + ning uy + imiz-* kabi. Bunday qaratuvchi ta'kid ma'nosini ifodalashga-gina xizmat qiladi.

Ikkinchi farq shuki, bunday vazifada kelgan *o'z* leksemashakli grammatik ko'rsatkich, shu jumladan nisbatlovchi qo'shilmagan holda ham keladi: *o'z + im + ning uy + im-* - *o'z uy + im-* kabi. Bunda *o'z* leksemashakli tashqi ko'rinishda sifatlovchini eslatadi.

O'zimning uyim- birikmasida oldingi a'zo tarkibidagi nisbatlovchi keyingi a'zo tarkibidagi nisbatlovchiga o'zaro moslashib qo'shiladi, natijada ortiqchalik voqe bo'ladi. Bunday ortiqchalik tilshunoslikda *pleonazm* deyiladi (< yunoncha *pleonasmos* - 'ortiqchalik'). Tilning tejamkorlik qoidasiga binoan oldingi a'zo tarkibidagi nisbatlovchi tushiriladi, ayni vaqtda qaratqich kelishigi affiksi ham tushiriladi, chunki kelishik affiksi *o'z-* ta'kid birligiga bevosita qo'shilmaydi.

Qaratuvchi qaralmishsiz ishlatilmaydi, chunki qaratqich kelishigi-ning o'zi doirasida tugallik bo'lmaydi, qaralmish tarkibidagi nisbatlovchi bilan birgalikdagina grammatik shakl tugal tus oladi.

Qaralmish ham asosan qaratuvchi bilan birgalikda ishlatiladi. Faqat qaratuvchi kishilik olmoshi bilan ifodalanganida, qaratuvchi nutqning oldingi qismida aniq ifodasini topganida bunday qaratuvchini tushirish, keltirmaslik mumkin: *mening uyim*- birikmasining birinchi a'zosi tushirilib, *uyim*- tarzida ishlatilishi kabi.

Bunday tushirishga asos bor: kishilik olmoshi leksik ma'no anglatmaydi, faqat shaxs, son, o'rni bilan modal ma'noni – grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Xuddi shu grammatik ma'nolarni nisbatlovchi ham ifodalaydi. Natijada o'ziga xos pleonazm hosil bo'ladi. Bu yerdagi pleonazm qaratuvchi vazifasidagi leksemashaklni ishlatmaslik bilan bartaraf qilinadi, natijada birikmaga teng holat yo'qoladi. Ikkinchi a'zoda qaralmishlik holati yo'qolmaydi: nisbatlovchi bunga yo'l qo'ymaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mantiq urg'usi tushganida, shuningdek boshqa ayrim talablarga ko'ra bunday ifodalanadigan qaratuvchi tushirilmaydi: *Mening singlim – a'lochi* kabi. Tushirilgan qaratuvchini zarur o'rinda bemalol tiklash mumkin: *Singlim – a'lochi – Mening singlim – a'lochi* kabi.

Qaratuvchi bilan qaralmishda shaxs, son, modal ma'nolarning ifodalanishi va o'zaro munosabati quyidagicha:

I. Shaxsda, sonda muvofiqlashuv yuzaga keladi, modallik ifodalanmaydi. Bunda qaratuvchi: 1) I, II shaxs birlik kishilik olmoshi bilan ifodalanadi: *mening kitob + im-* , *sening kitob + ing-*; 2) I, II shaxs ko'plik kishilik olmoshi bilan ifodalanadi: *biz I + ning uy + imiz I-* , *siz I + ning uy + ingiz I-* .

II. Shaxsda, sonda va modallikda muvofiqlashuv yuzaga keladi. Bunda qaratuvchi I, II shaxsning *biz 2-*, *siz 2-* birlik olmoshi bilan ifodalanadi: 1) 'kamtarlik', 'g'ururlanish' ifodalanadi: *biz- 2 + ning uy + imiz 2-*; 2) 'sizlash' ifodalanadi: *siz 2 + ning uy + ingiz 2-* ; 3) 'hurmat' ifodalanadi: *buvi + m + lar II + ning ro'mol + lari-* .

III. Shaxsda, sonda muvofiqlashuv yuzaga keladi, modallik birikmaning bir a'zosida ifodalanadi: 1) qaratuvchida ifodalanadi: *buvi + m + lar II + ning ro'mol + i-*; 2) qaralmishda ifodalanadi: *buvi + m + ning ro'mol + lari-*.

IV. Shaxsda, modallikda ('senlash'da) muvofiqlashuv yuzaga keladi, son jihatidan mutanosiblik bo'lmaydi: ko'plik faqat qaratuvchida ifodalanadi: *sen + lar + ning uy + ing-*.

V. Shaxsda muvofiqlashuv, sonda va modallikda moslashuv yuzaga keladi: 1) 'sizlash' ifodalanadi: *siz + lar + ning uy + ingiz I-, ular 2 + ning uy + lari-*; 2) 'senlash' ifodalanadi: *sen + lar + ning uy + lar + ing-*.

VI. Shaxsda muvofiqlashuv, sonda moslashuv yuzaga keladi, modallik ifodalanmaydi: *biz + lar + ning uy(lar) + imiz I-, siz + lar + ning uy(lar) + ingiz*

VII. Shaxsda muvofiqlashuv voqe bo'ladi, qaralmish tarkibidagi nisbatlovchi son jihatidan betaraf bo'ladi, modallik ifodalanmaydi: *u + ning uy(lar) + i-, ular + ning uy(lar) + i-, buvi(lar) + im + ning ro'mol(lar) + i-*.

VIII. Shaxsda, sonda, modallikda (agar ifodalansa) moslashuv voqe bo'ladi: *o'z + im + ning uy(lar) + im-, o'z + ing + ning uy(lar) + ing-, o'z + i + ning uy(lar) + i-, o'z + imiz I + ning uy(lar) + imiz I-, hamma || ikki + miz I + ning uy(lar) + imiz I-, .. hamma || ikkov + lari I + ning uy(lar) + i-*.

Yuqoridagi tasvirga ko'ra:

1. Qaratuvchili birikmaning sakkizinchi turida qaratuvchining ifoda materiali (*o'z-*, *hamma-*, *ikki-* kabi leksemalar) tufayli birinchi a'zo tarkibidagi nisbatlovchi bilan ikkinchi a'zo tarkibidagi nisbatlovchi o'zaro shaxsda, sonda, o'zni bilan modal ma'noda moslashadi.

2. Qolgan yetti tur birikmada qaralmish tarkibidagi nisbatlovchi ifodalaydigan shaxs ma'nosi qaratuvchi vazifasidagi leksemashaklning asosidan anglashiladigan shaxs ma'nosiga muvofiqlashadi.

3. Qaratuvchili birikmaning bu yetti turidan uchta (I, II, III) sonda muvofiqlashuv yuzaga keladi, ikki turida (V, VI) sonda moslashuv voqe bo'ladi,

bir turida (IV) sonda moslashuv yo‘qoladi, bir turida (VII) qaralmish son jihatidan betaraf bo‘ladi.

4. Modallik bu yetti tur birikmaning uchta (I, VI, VII) ifodalanmaydi (betaraf bo‘ladi), ikkita (II, IV) modallikda muvofiqlashuv, bitta (V) moslashuv voqe bo‘ladi, bir turida (III) modallik faqat bir a'zoda ifodalanadi.

5. Ayni vaqtda ham shaxsda, ham sonda muvofiqlashuv ikki tur (I, II) birikmada, ham shaxsda, ham modallikda muvofiqlashuv bir tur (IV) birikmada, uch jihatda (shaxsda, sonda, modallikda) muvofiqlashuv ham bir tur (II) birikmada voqe bo‘ladi.

6. Demak, muvofiqlashuv yetti tur birikmaning barchasida shaxs ma'nosining ifodalanishida namoyon bo‘ladi. Bunday birikmalarning ma'lum turlarida moslashuv ham ichki, juz'iy hodisa sifatida qatnashadi.

7. Qaratuvchining kelishik shakli, qaralmish tarkibidagi sonlovchi birikma a'zolari orasidagi mutanosiblikda qatnashmaydi.

Yuqoridagi belgi-xususiyatlar qaratuvchili birikma a'zolari orasidagi sintaktik aloqa moslashuv emas, balki muvofiqlashuv ekanini tasdiqlaydi. Umuman, o‘zbek tilida mustaqil sintaktik hodisa sifatida moslashuv aloqa turi mavjud emas.

O‘zbek tilining turkiy til sifatida o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – kelishik affiksini "yashirish"ga, ishlatmaslikka yo‘l qo‘yilishi. Bunday hodisani bosh kelishikning nol ko‘rsatkichli morfema bilan ifodalanishidan farqlash lozim: affiksning yo‘qligi – boshqa-yu, affiksni "yashirish", ishlatmaslik – boshqa.

Qaratqich kelishigi ko‘rsatkichining ikki xil ishlatilishi – saqlanishi (belgili bo‘lishi) va tushirilishi (belgisiz bo‘lishi) azaliy emas; belgisiz ishlatilish keyinchalik yuzaga kelgan. Har qanday qaratuvchili birikmada qaratqich kelishigini belgisiz ishlataverish mumkin emas: *tolning soyasi*- va *tol soyasi*- deyiladi, lekin *cholning nabirasi*- kabi birikmada qaratqich kelishigi faqat belgili ishlatiladi.

Umuman, qaratqich kelishigining belgisiz ishlatilishi birikma tarkibida voqe bo‘ladi, ma'no nozikligini ifodalashdan tashqari, asosan uslubiy vosita sifatida

xizmat qiladi. Shu bilan birga qaratqich kelishigining belgisiz ishlatilishini belgili ishlatilishiga aylantirish imkoniyati albatta bo'ladi. Agar shunday imkoniyat bo'lmasa-gina, qaratqich kelishigi haqida emas, bosh kelishik haqida gapirish lozim.

Qaratuvchi-qaralmish birikmasida qaratqich kelishigini belgili ishlatishning o'ziga xos shartlari mavjud:

1. Qaratuvchi ot turkumidan boshqa turkum leksemashakli bilan ifodalanganida:

1) kishilik olmoshi bilan: *mening uyim-, sizning takliflaringiz-, ularning mahallasi-* kabi; 2) gumon olmoshi bilan: *kimningdir tovushi-, birovlarining oyog'i-* kabi; 3) sifat tur olmosh bilan: a) ko'rsatish olmoshi bilan: *buning yoni-, shularning barchasi-* kabi; b) belgilash olmoshi bilan: *har kimning tashabbusi-, har narsaning mavridi-* kabi.

2. Qaratuvchi atoqli ot leksemashakl bilan ifodalanganida: *Abdukarimning opasi-, Qorasuvning bo'yi-* kabi. Ayrim birikmalarda qaratqich kelishigini belgili ham, belgisiz ham ishlatish mumkin: *Toshkent bozorlari-, Toshkentning bozorlari-* kabi.

3. Qaratuvchi turdosh ot leksemashakl bilan ifodalanganida qaratqich kelishigining belgili ishlatilishi ko'pincha qaralmish ot turkumidan boshqa turkum leksemasi bilan ifodalanganida voqe bo'ladi: 1) *bolalarning kattasi-*, 2) *xonalarning uchtasi*, 3) *so'roqlarning hammasi-* kabi.

4. Kelishikdan oldin nisbatlovchi qatnashganida: *ukangning qizi-, shogirdimning ishi-* kabi.

5. Qaratqich kelishigining belgili, belgisiz ishlatilishi qaratuvchi bilan qaralmishning distant joylashuvi tufayli, uslub talabiga ko'ra ham voqe bo'ladi.

O'zbek tilshunosligining dastlabgi taraqqiyot bosqichida qaratqich kelishigining belgili-belgisiz ishlatilishi tan olinib, chuqur tahlil qilingan. Keyinchalik qaratqich kelishigining belgisiz ishlatilishini bosh kelishik deb talqin etish yuzaga keldi. Bunday qarash kelishikni faqat bir jihati – ifoda jihati asosida

belgilash natijasida paydo bo'ldi; bunday qarashda morfema ikki jihatning – ifoda jihati va mazmun jihatining bir butunligiga teng ekani yetarli hisobga olinmadi. Eng nomaqbul tomoni shuki, o'zbek tili (turkiy til) hodisasi rus tili (hind-yevropa tillari) nuqtayi nazaridan yondashib baholandi. Haqiqatda, rus tilida o'zbek tilidagi kabi kelishik ko'rsatkichini yashirin (tushirish) hodisasi yo'q.

Kitobning muqovasi- o'rniga *kitob muqovasi-* tarzida ishlatish oqibatida grammatik ma'noda ma'lum o'zgarish yuz beradi (ta'kid yo'qoladi, 'xil' ma'no qirrasini yuzaga keladi), lekin sintaktik aloqa o'zgarmaydi, demak, sintaktik vazifa ham o'zgarmaydi; bunday qurilmalarda asli kelishik almashmaydi, ayni shu kelishik bir shakldan (belgili shakldan) ikkinchi shaklga (belgisiz shaklga) o'tadi. O'zbek tilining bunday o'ziga xos xususiyatini inkor etish-gina belgisiz qaratqich kelishigini bosh kelishik deb talqin qilishga olib keladi. Kelishikning belgili-belgisiz ishlatilishini o'zbek tilining milliy xususiyati sifatida har tomonlama chuqur o'rganish lozim.

Qaratuvchi aniqlovchi. Qaratuvchili birikmada qaralmishdan anglashilayotgan predmet yoki predmet tasavvuridagi narsaning qaratuvchidan anglashilgan narsa/shaxsga mansublik, tegishlilik ma'nosidagi daxldorligi anglashiladi. Qaralmish vazifasidagi so'zning lisoniy valentligida qaratuvchi to'ldiruvchiga qaram bo'lgan bo'sh o'rin fakultativ, nozaruriydir. Shu boisdan qaralmish egalik qo'shimchalari bilan shakllanib, bu lisoniy nozarurlikni zaruriyatga aylantiradi.

Qaratuvchi va qaralmish munosabati ikki tomonlamadir. Birinchi a'zo (qaratuvchi) qaratqich kelishigi yoki bosh kelishik bilan, hokim a'zo esa egalik qo'shimchasi bilan yoki usiz shakllanadi.

1.Qaratuvchining qaratqich kelishigi bilan shakllanishi: olmaning shoxi, ammaning daftari, Salimning kitobi.

2.Qaratuvchining bosh kelishikda bo'lishi: mart oyi, bozor kuni, nafrat hissi.

3.Qaralmishning egalik qo'shimchasisiz shakllanishi: bizning uy, sizning ayvon, Bizning yorni ko'rgan bormi(

Qaratuvchili birikmadan bu vazifada kelayotgan so'zlarning o'zaro munosabatlaridan turli ma'nolar anglashilishi mumkin:

- 1.Qarashlilik: Azizaning kitobi, mening onam.
- 2.Xoslik: olmaning bari, piyozning pusti.
- 3.Butun bo'lak: stolning oyog'i, uyning eshigi,
- 4.Tur-jins: olmaning yaxshisi, odamning aqllisi.
- 5.Bajaruvchi va harakat munosabati: bolaning yig'isi, itning hurishi.

Bu ma'nolarning barchasi [Ism q.k. - Ism e.q. = qaratuvchi va qaralmish] qolipi emas, balki so'zlarning ma'noviy munosabatlari hosilasidir.

Qaralmishdagi egalik affiksi qaratuvchining qaysi shaxsda ekanligini bildirib turadi. Shu boisdan ko'p hollarda qaratuvchi qo'llanilmasligi ham mumkin: ukang, kitobing kabi. Bunda ta'kid muhim rol o'ynaydi. Qaratuvchini ta'kidlash lozim bo'lganda, u, albatta, qo'llanadi. Boshqa hollarda qaratuvchining qo'llanishi nutqiy ortiqchalikni keltirib chiqaradi.

Umuman, qaratuvchining qo'llanmasligi quyidagi hollarda yuz beradi:

1.Qaratuvchi vazifasida o'zlik olmoshi qo'llanishi lozim bo'lganda: Salim o'rtoqlariga xat jo'natdi.

2.Qaratuvchidan anglashilgan ma'no birinchi gaplardan ma'lum bo'lib turgan bo'lsa, uslubiy ortiqchalikdan qochish maqsadida: Men sevgan qizimga uylandim. (Mening) Xotinimning otasi savdogar edi.

3.Ta'kidlash lozim ko'rilmaganda: Bog'imda anorim bor.

Izohlovchi ham aniqlovchining bir turidir. Predmetga boshqa nom berish, uni boshqacha atash yo'li bilan aniqlaydigan bo'laklar izohlovchi deyiladi. Izohlovchi aniqlab kelgan bo'lak izohlanmish sanaladi. Izohlovchilik birikmada ikki predmetning munosabati ifodalanadi. Izohlovchi va izohlanmish bo'laklar ot, otlashgan sifat, son yoki sifatdosh bilan ifodalanadi.

Izohlovchilar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

Unvonni: Professor .Abdurahmonov atoqli tilshunos olimdir.

Mashg'ulot, kasb, amali: hovliga bosh buxgalter Sulaymon Sodiqov kirib keldi. Yo'lchi o'z do'sti temirchi Qoratoy bilan hangomalashib o'tirar edi.

Qarindoshlik va shunga o'xshatilgan belgini: To'xta xola uzoqdan kelayotgan ikki kishini qorasini ko'rdi. Opam Karima Universitetning 5-kursida o'qiydi.

Jinsi: Uzoqdan qiz bolalarning kulgusi eshitilardi.

Laqabi: Ayvon pastida Soli sovuq bilan Juman pismi ho'l qovushtirib turadi.

Taxallusni: Rahmatulla ota o'g'li-Uyg'un yirik o'zbek shoiridir.

Aniqllovchilar tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: Sodda aniqllovchi, murakkab aniqllovchi.

Bunday birikmaning har ikki a'zosi odatda predmet ma'nosini anglatadigan leksema(shakl) bilan, ba'zan-gina izohlovchi belgi ma'nosini anglatadigan leksema(shakl) bilan ifodalanadi; natijada predmet ma'lum bir tavsif olgan holda anglatiladi: *shoir Mirtemir-, Malik pakana-* kabi.

Bunday birikmaning birinchi a'zosi vazifasida birlik, bosh kelishikdagi atoqli ot leksema keladi, ikkinchi a'zosi leksemaga teng bo'ladi; kelishik morfemasi birikmaga keyingi sintaktik bog'lanish natijasida qo'shiladi.

Izohlovchi odatda izohlanmishidan keyin, ba'zi tur izohlovchi esa izohlanmishidan oldin joylashadi; shunga ko'ra bunday birikmaning qolipi ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1) atoqli ot leksema	birlik son shakli	bosh kelishik shakli	X	predmet, belgi ma'nosini anglatadigan leksema	birlik son shakli	-
l e k s e m a s h a k l				l e k s e m a		
i z o h l a n m i s h				i z o h l o v c h i		
i z o h l o v c h i l i				b i r i k m a		
(M a l i k				p a k a n a)-		

2) predmet, belgi ma'nosini anglatadigan leksema	birlik son shakli	bosh kelishik shakli	X	atoqli ot leksema	birlik son shakli	-
l e k s e m a s h a k l				l e k s e m a		
i z o h l o v c h i				i z o h l a n m i s h		
i z o h l o v c h i l i				b i r i k m a		
(Sh o i r				M i r t e m i r)-		

Izohlovchili birikmaning birinchi a'zosi bosh kelishik shaklida bo'la turib tobe sintaktik aloqani ta'minlaydi; demak, bosh kelishik mutlaq hokimlik ko'rsatkichi deyish to'g'ri emas.

Izohlovchili birikma a'zolari orasidagi sintaktik aloqa bitishuv aloqasi deyiladi. Bunday birikmadagi sintaktik aloqa sifatlovchili birikmadagi bitishuv aloqasidan farq qiladi: izohlovchili birikmaning birinchi a'zosi bosh kelishikda bo'ladi (Kelishikdan oldin birlik son shakli qatnashadi). Bunday a'zo ot yoki ot hukmidagi leksema bilan ifodalangani sababli biror kelishik shaklida bo'ladi, ana shunday kelishik sifatida eng umumiy, eng keng qamrovli bosh kelishik keladi.

1. Quyidagicha ifodalangan izohlovchi izohlanmishidan keyin joylashadi:

1) qarindoshlik ma'nosini anglatadigan leksema bilan: *Shuhrat aka-, Feruza opa-, Zamira xola-* kabi;

2) mashg'ulotni, kasbni anglatadigan leksema bilan: *Tolib qassob-, Ilhom choyxonachi-, Ravshan oshpaz-* kabi;

3) Ism, ota ism, familiyadan iborat qurilmalarda ham keyingi leksema(lar) izohlovchi hisoblanadi: *Hamid Olimjon-, Sa'di Hasanovich Sirojiddinov-* kabi;

4) taxallus, laqab sifatida ishlatiladigan leksema bilan: *Alisher Navoiy-, Olim janjal-* kabi.

2. Quyidagicha ifodalangan izohlovchi izohlanmishidan oldin joylashadi:

1) lavozim, unvon kabilarni anglatadigan leksema bilan: *akademik Dolimov-, leytenant Rahimov-* kabi;

2) nisbatlovchi qo'shilgan qarindoshlik leksemasi bilan: *otasi Abduha-mid-, opasi Salima-* kabi.

Yuqoridagi tasvirlardan ayon bo'ladiki, o'zbek tilida izohlovchili birikmaning qolipi asli "izohlanmish X izohlovchi" ko'rinishida bo'lgan, hozir ham shu ko'rinishi yetakchi.

Sintaktik formadagi so'zlar bilan ifodalanib, bir sodda tushunchani anglatadigan sodda aniqlovchi deyiladi. Sodda aniqlovchi quyidagicha ifodalanishi mumkin. M: Vatanimizning hamma burchaklarida mustaqillik nashidasi xukmron. Ahmadalining ukasi injener bo'ldi. Ikkita olma bir kilo chiqdi. Kurilajak masala ham nozik ekan. Horiganning tili ko'p uzun bhladi.

Ikki va undan ortio` so'zlarning tobelanish munosabatidan tashkil topgan bir murakkab tushuncha anglatadigan gapda bir butun holda aniqlovchi vazifasida qo'llanadigan birikmalar murakkab aniqlovchi deyiladi. Murakkab aniqlovchilar quyidagi morfologik-sintaktik birikmalar bilan ifodalanadi. M: Markaziy Osiyolik olimlar simpoziumiga to'planadilar. Ozing qani desa, qulog'ini ko'rsatadigan Haydarqul butun xo'jalik rahbari. Ko'pchilik o'rtasida oq koftalik, qora yubkalik, ixcham qomatli Fotima yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Yuz yillik qarag'aylar o'zaro shivirlasha ketdi. Ko'z ilg'amas o'rmonlarda qish xukmron suradi.

Umuman, aniqlovchilar belgi anglatishi nuqtai nazardan hol va kesimga o'xshab ketadi. Lekin kesim eganing belgisini xukm yo'li bilan ifoda etadi, hol esa harakatning turli belgilarini aniqlaydi. Aniqlovchining ulardan farqi shundaki, ular ot yoki otlashgan so'zlar belgisini atributiv yil bilan izohlab keladi.

II BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINTAKSIS ELEMENTLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI

2.1. BOSHLANG'ICH SINFLARDA GAP USTIDA ISHLASH

Boshlang'ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar amaliy o'rganiladigan nazariy o'rganiladigan bilimlarga bo'linadi. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy o'rgatish savod o'rgatish davridayoq boshlanadi va 4-sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang'ich sinfda "Gap", "Darak gap", "So'roq gap", "Buyruq gap", "His-hayajon gap", "Sodda gap", "Gap bo'laklari", "Gapning uyushiq bo'laklari", "Undalmali gaplar" mavzulari nazariy o'rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o'zlashtirilgani uchun tilni o'rganishda gap ustida ishlash markaziy o'rin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ularning muhim kategoriyalarining tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladilar. O'quvchilar ona tili leksikasini ona tili leksikasi negizida egallaydilar. So'zning leksik ma'nosi va unung qo'llanish xususiyatlari so'z birikmasi yoki gapda ma'lum bo'ladi. So'z gapda bir ma'noli bo'ladi (gapdan tashqarida bir necha ma'no ifodalashi mumkin).

Metodist olimi T.G.Ramzayeva boshlang'ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yo'nalishga bo'ladi:

- ◆ Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo'lgan gapning muhim belgilarini o'rgatish).
- ◆ Gap qurilishini o'rgatish (so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyatlari, yoyiq va yig'iq gaplar ustida ishlash).
- ◆ O'quvchilarning nutqida gapning ifoda maqsadiga va ohangga ko'ra turlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

- ◆ Gapda so'zlarni aniq qo'llash ko'nikmasini o'stirish.
- ◆ Yozma nutqda gapni to'g'ri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo'yish) ko'nikmasini shakllantirish.²

Ishning bu besh yo'nalishi bir-biriga o'zaro ta'sir etadi va gapning ayrim tomonlarini o'rganish maqsadidagina ularning har biri mustaqil muhokama qilinadi. Gapni o'rganish va nutqda undan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi. O'quvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tug'iladi. U o'z fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi.

“Gap” mavzusi barcha sinflarda o'rganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirilib boriladi. O'quvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi –gap haqidagi elementlar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, gapda so'zlarning bog'lanishi, gapning uyushiq bo'laklarini o'rganishga o'tadilar.

Gap ustida ishlashning bosshlang'ich bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikir ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar. Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so'zlardan gap tuzib bo'lmaydi. Agar o'quvchilar gapning bosh bo'laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega bilan kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham savod o'rgatish davrida gapning bosh bo'laklari ustida kuzatish o'tkazgan ma'qul.

Gapning bosh bo'laklarini kuzatish bilan o'quvchilar o'z fikrlarini aniq ifodalashga o'rganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish ko'nikmasi shakllanadi. Gapni o'rganish me'yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan, so'z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi.

² Ramzayeva T.G. Metodika obuchenii russkomu yaziku v nachalnih klassax. –M.: 1979. S. 291-292.

Dasturga ko'ra, 1-sinfda o'quvchilarga gap haqida elementer tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so'zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma'lum tinish belgilarining qo'yilishi haqida amaliy ma'lumotlar beriladi.

2-sinfda esa o'quvchilar gap haqida nazariy tushunchalar oladilar. Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni ajratishga o'rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga muqaddima bo'ladi.

3-sinf gap ustida ishlashda yangi bosqichdir. O'quvchilar gapni amaliy o'rganishdan tushuncha sifatida o'rganishga o'tadilar. Ular gapning muhim belgilarini bilib oladilar. Bu bosqichda bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning ta'rifi, ega va kesim atamaları kiritiladi. Bu sinfda gapda so'zlarning bog'lanishiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar gapning asosi (ega va kesim)ni ajratadilar, ikkinchi darajali bo'laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so'z (hokim va tobe so'z)ni, so'zlarning grammatik jihatdan, ya'ni qo'shimchalar orqali bog'lanishini bilib oladilar.

4-sinfda gapning uyushiq bo'laklarini o'rganish bilan gap bo'laklari haqidagi bilim kengaytiriladi.

Shunday qilib, o'quvchilarda gap bo'laklari haqidagi tasavvurni o'stirish gapni o'zlashtirishda etekchi hisoblanadi. Birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilari gap bolaklarini ikki guruhga (bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga) bo'linishini o'lashtiriladilar. Bu sinflarda ikkinchi darajali bolaklar turlarga ajratilmaydi. Gapni o'zlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning mohiyati ochiladi: bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi, fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali bo'laklar esa bosh bo'laklarni aniqlovchilik va to'ldiruvchilik vazifasini bajaradi.

Ikkinchi darajali bo'laklarning mohiyatini ochish uchun o'quvchilar gapni tahlil qiladilar va ular qaysi gap bo'lagiga bog'lanib, uni izohlab kelayotganini aniqlaydilar. Ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyatlari gapni yoyish (yig'iq gapni yoyiq gapga aylantirish) jarayonida yaqqol ko'rinadi. Masalan, o'quvchilar

“Qaldirg’ochlar uchib keldi” gapini yozadilar. Fikrni to’liq ifodalash uchun gapga qayerga? Va qachon? So’roqlariga javob bo’luvchi so’zlarni qo’yishni talab qiladi. O’quvchilar bu vazifani bajarib, qaysi gap bo’lagi (ikkinchi darajali bo’lak) fikrni yana aniqroq ifodalaganiga ishonch hosil qiladilar.

O’quvchilarda gapda so’zlarning bog’lanishini aniqlash ko’nikmasini shakllantirish muhim sintaktik va nutqiy ko’nikmalar qatoriga kiradi. So’z birikmasi gap qismi sifatida ajratiladi va boshlan-ich sinflarda uning muhim belgilari idrok qilinadi. «So’z birikmasi» atamasi darsliklarga kiritilmagan, ta’rifi berilmaydi. Ammo kichik yoshdagi o’quvchilar uning quyidagi muhim belgilarini amaliy bilib olishlari zarur:

So’z birikmasi grammatik va mazmun tomonidan bog’langan ikki qism bo’ladi. Masalan, «dunyo xalqlari tinchlik uchun kurashadilar» gapida ikkita so’z birikmasi bor: 1) dunyo xalqlari; 2) tinchlik uchun kurashadilar.

So’z birikmasida bir hokim so’zga ikkinchi bir so’z tobe bo’ladi. Hokim so’zdan tobe so’zga so’roq beriladi, tobe so’z shu so’roqqa javob bergan so’zdir. Masalan, (qanday?) iqtidorli o’quvchilar (nimaga) to’garakka a’zo bo’ldilar. Ega va kesim so’z birikmasini emas, gapni tashkil etadi.

Gap tarkibidagi so’z birikmalarini ajratish ko’nikmasi uzoq mashq davomida shakllantirib boriladi. Buning uchun o’quvchilarning so’z birikmasidan bir so’zning boshqa so’zga tobeligini tushunishga qaratilgan mashqlar tizimidan foydalaniladi:

Gaplarni yoyish. Buning uchun gapning qaysi bo’lagi yoyishni talab qilishi aniqlanadi. Masalan, «daraxtlar gullaydi» gapini tahlil qilish uchun berilgan ega va kesim (gapning asosi) ajratiladi.

-daraxtlar qachon gullashini aytish uchun gapga qaysi so’zni qo’shish kerak?

-Qachon gullaydi? (bahorda gullaydi)

-Bu so’z gapning qaysi bo’lagi bo’ladi. (ikkinchi darajali bo’lagi).

-U gapning qaysi bo’lagiga bog’lanadi, ya’ni tobelanadi? (kesimga bog’lanadi).

-gapga egani izohlaydigan yana bitta soʻz qoʻshing. Qanday gap hosil boʻldi? (Mevali daraxtlar bahorda gullaydi)

Soʻzlari aralash berilgan gapni qayta tiklash. Avval gapning asoslarini (ega va kesim) tiklanadi (aniqlanadi), soʻng soʻroqlar yordamida ikkinchi darajali boʻlaklar (soʻz birikmalari) «topiladi», tiklanadi. Masalan, Mashinada, teradi, terimchi, paxtani.

-Gap kim haqida aytilgan? (terimchi haqida, kim?-terimchi)

-U haqda nima deyilgan? (Teradi. Terimchi teradi-bosh boʻlaklar).

-Soʻroqlar yordamida soʻz birikmasini toping. Nimani teradi? (Paxtani teradi), nimada? Teradi (Mashinada teradi). Keyin gapda soʻzlarning qulay tartibi aniqlanadi (Terimchi paxtani mashinada teradi). Gap ohanggi ustida ishlanadi.

Uzluksiz (tinish belgilarisiz) matndan gaplarni ajratish. Mashqning bu turi ongli boʻlishi uchun har bir gapning bosh boʻlaklarini va soʻz birikmalarini ajratish lozim.

Gapni tahlil qilish va chizmasini chizish. Gap tahlil qilinayotganda dastlab uning asosi ajratiladi, keyin egani izohlovchi ikkinchi darajali boʻlak, kesimni izohlovchi ikkinchi darajali boʻlak, boshqa ikkinchi darajali boʻlakni izohlovchi ikkinchi darajali boʻlak ajratiladi. Shunday qilib, asta-sekin soʻz birikmasi aniqlanadi.

Oʻqituvchi bergan chizma yoki soʻroqlar asosida gap tuzish: Kim? nimalarni? nima qildi? (Bola olmalarni terdi).

Soʻz birikmasi ustida ikki xil ish olib boriladi:

Soʻz birikmasiga gap ichida gapning tarkibiy qismi sifatida qaralid;

Soʻz birikmasiga predmetning yoyiq nomi sifatida qaraladi, masalan, soat-soʻz, oltin soat, qoʻl soat, osma soat, elektron soat-soʻz birikmalari.

2.2. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ANIQLOVCHI USTIDA ISHLASH

O'qituvchi o'z o'quvchilarining dars jarayonidagi ilmiy-amaliy faoliyatini tashkil qilish avvaldan rejalashtirilgan aniq bir maqsadga mustaqil matn yaratishga yo'naltirish uchun har bir dars puxta rejalashtirilishi, darsni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishi, lozim bo'lsa, yangi mashqlar namunalarini tanlab, qo'shimcha mashg'ulot sifatida rejaga kiritishi, darsni guruhlararo musobaqa tarzida olib borishi nihoyatda foydali bo'ladi. O'qituvchi doimiy ravishda o'z o'quvchilarini o'rganilgan mavzular yuzasidan o'z fikrlarini aytishiga undashi, ular tomonidan kiritilgan taklif va mulohazalarni, o'z iste'dodlarini namoyish qilishga bo'lgan urinishlarini ijobiy tushunishi, bunday ijodkorlik, kashfiyotchilik ishlarini muttasil rag'batlantirib borishi, ularga sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi, "Quvnoqlar va zukkolar" bellashuvvi, turli shakl va mazmundagi (nutqiy mahoratni shakllantiruvchi) ko'rik- tanlovlar, debatlar, lozim bo'lsa, o'quvchi shaxsini ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashi lozim bo'ladi.

Aqliy operatsiyalar (tahlil, qayta qo'shish va ularning hosilasi- abstraksiyalash, aniqlashtirish, umumlashtirish, taqqoslash, tasniflash) inson aqliy taraqqiyoti darajasining ko'rsatkichi bo'lib, ular kishida shakllangan bilimlar tizimi bilan belgilanadi. Tizimga keltirilgan bilimlar fikrlash jarayonidagi izchillikni ta'minlaydi, o'rganilayotgan hodisalarning mohiyatini chuqurroq anglashga ko'maklashadi. Masalan, aniqlovchi o'rganilgach, umumlashtirish darsi quyidagi savollar atrofida o'tkaziladi:

1. Sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarning o'xshash tomonlari va farqlari nimalardan iborat?
2. Izohlovchi qaysi tomondan sifatlovchi aniqlovchiga o'xshaydi?
3. Aniqlovchining barcha turlari (sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi, izohlovchi) uchun qanday xususiyat umumiy hisoblanadi?

Mavzu yuzasidan umumiy xulosa chiqarish uchun quyidagi topshiriqlar ustida ish olib boriladi.

1-topshiriq

Gaplarni o'qib, sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarni toping. Ularning farqlarini aytib berishga tayyorlaning.

1. *Po'lat pichoq qinsiz qolmas.*

2. *Ishlaganning yuzi yorug' bo'ladi.*

3. *Daraxtlarning ko'm-ko'm shoxlarida och-sariq gullar miltillab ko'rinar edi.*

2-topshiriq

“O'qigan” so'zini sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilar vazifasida keltirib, ikkita gap tuzing. Sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarning umumiy xususiyatini aytib berishga tayyorlaning.

3-topshiriq

Gaplarni o'qib, aniqlovchilarning turlarini aytib berishga tayyorlaning. Sifatlovchi, qaratqich, izohlovchi aniqlovchilarning qanday ifodalanganini tushuntiring.

Ayvon pastida Soli sovuq bilan Juman pismiq qo'l qovushtirib turardi. Egrining soyasi ham egri. Bizning qishlog'imiz tog' yon bag'riga tutashgan. Ko'm-ko'k ko'zli latta qo'g'irchoqning yuzi olmadek qip-qizil edi.

4-topshiriq

Aniqlovchining qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanganini aniqlab, gap tarkibidagi o'rnini taqqoslang. Gapning qaysi bo'lagini aniqlayotganini tushuntiring. Aniqlovchilarning uchala turi uchun umumiy xususiyatini ko'rsating.

Oltining yarmi-uch. Ko'm-ko'k dalalar ko'rindi. Vatan – ona so'zi naqadar laziz (Uyg'un).

Yuqoridagi topshiriqlarni bajarish asosida aniqlovchi bo'yicha quyidagi umumiy xulosalar chiqariladi:

1. Sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarning farqlari – sifatlovchi aniqlovchi narsa belgisini anglatib, sifat, son, olmosh, ot, sifatdoshga oid so'zlar bilan

ifodalansa, qaratqich aniqlovchi narsa qarashli bo'lgan narsani bildirib, qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan ifodalanadi, sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarning o'xshash tomonlari—ular gap tarkibidagi biror bo'lakni aniqlaydi, gap tarkibida o'zlari aniqlagan gap bo'lagidan oldin keladi.

2. Izohlovchi gap tarkibidagi biror bo'lakni aniqlashi bilan sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarga o'xshaydi. Izohlovchi gap tarkibidagi o'rni jihatdan sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilardan farq qiladi: izohlovchi ba'zan izohlanmishdan oldin, ba'zan esa keyin keladi.

3. Aniqlovchilarning barcha turlari gap tarkibidagi biror bo'lakni aniqlaydi. Gap bo'laklarini aniqlash aniqlovchilarning barcha turlari uchun umumiy xususiyat hisoblanadi. Chiqarilgan umumiy xulosalar zaminida aniqlovchilarga doir yanada umumiy, oxirgi va yakuniy xulosa chiqariladi.

Gapning biror bo'lagini aniqlaydigan, izohlaydigan yoki biror bo'lakning ikkinchi bo'lakka qarashli ekanligini ko'rsatadigan gap bo'lagiga aniqlovchi deyiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bilim va malakalarni umumlashtirish darslari darsning boshqa tiplaridan tubdan farq qiladi. Ruhiy jihatdan umumlashtirish darslari tushuncha doirasida bilimlarni tizimga keltirish bilan xarakterlanadi. Bunday darslar uchun alohida mashq tanlanadi, mashg'ulot o'rganilgan tushunchalar, hosil qilingan malakalarni taqqoslash asosida olib boriladi. Bilim va malakalarni umumlashtirish darslarining miqdori o'rgatilgan bilimlar mundarijasiga ko'ra belgilanadi.

UMUMIY XULOSALAR

Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'pqirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik, mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasash usullari haqidagi (so'z yasashiga doir); so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tili to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarning ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuasion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasashiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuasion qoidalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi (fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa) ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi.

Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar)ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko'nikmalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasavvur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ko'rsatilgan ko'nikmalarni o'quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq, ishlash ularning o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan

predmetlararo ko'nikmalar, bir-biridan ajratilmagan holda, o'quv-tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'quvchilarni gapning hosil bo'lish jarayoni, gap bo'laklari tushunchalari bilan tanishtirish boshlang'ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar amaliy o'rganiladigan nazariy o'rganiladigan bilimlarga bo'linadi. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy o'rgatish savod o'rgatish davridayoq boshlanadi va 4-sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang'ich sinfda "Gap", "Darak gap", "So'roq gap", "Buyruq gap", "His-hayajon gap", "Sodda gap", "Gap bo'laklari", "Gapning uyushiq bo'laklari", "Undalmali gaplar" mavzulari nazariy o'rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi.

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklar tushunchalari umumiy o'rgatiladi. Ikkinchi darajali bo'laklarning belgilari o'rgatiladi. Lekin alohida-alohida nom bilan o'rgatilmaydi. Shunga qaramasdan to'ldiruvchi, aniqlovchi va hollarning bir-biridan farqli tomonlari haqidagi bilimlar beriladi. Aniqlovchilarning turlari aniqlanadi. Savollari qaysi so'z turkumlari aniqlovchi vazifasida kela olishi haqidagi bilimlar o'rgatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston tarakkiyotining poydevori. T.: 1998.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.: 1997. 5- jild.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.
4. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Konuni. T.: 1997
5. O'zbekiston Respublikasining Milliy dasturi. T.: 1998.
6. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim . 2006 , 5- son .
7. Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim . 2006 , 5- son
8. Abdullaeva K. Nazarov K. Yo'ldosheva Sh. Savod o'rgatish darslari. T.: O'kituvchi .1996 .
9. Gapparova T., Shodmonov E., Eshturdieva G. Alifbe. (Savod.) T.: O'kituvchi 1999 yil
10. Safarova R. va boshqalar Alifbe. T., 2006 .
11. G'ulomov M. Yozuv daftari. T., Ma'naviyat. 2006
12. Safarova R. Va b. Savod o'rgatish. T.: Ma'naviyat. 2003.
- 13 G'apparova T., Shodmonov E. , Eshturdieva G. Ona tili . 1-sinf uchun. T.: O'kituvchi . 1999.
14. Abdullaeva K. va boshqalar . Ona tili. T.: O'qituvchi . 1999.
15. G'apparova T., Shodmonov E., G'ulomova X. Ona tili . 1-sinf uchun. T.: Sharq. 2005.
16. G'ulomova X. G'afforova T. 1- sinfda ona tili darslari. T.: Sharq. 2003.
17. Qosimova K. Fuzailov S. Ne'matova A. Ona tili . 2- sinf uchun T.: Cho'lpon. 2005.
18. Qosimova K. Ne'matova A. 2- sinfda ona tili darslari T.: Cho'lpon. 2004.

19. Fuzailov S. , Xudoberganova M., Ona tili . 3- sinf uchun T.: O'qituvchi. 2005.
20. Xudoyberganova M. Muxtorova M. 3- sinfda ona tili darslari. 3- sinf uchun T.: O'qituvchi .2005.
21. Ikromova R. Gulomova X. Yo'ldosheva Sh. Shodmonqulova D. Ona tili . 4- sinf uchun T.: O'qituvchi . 2007
22. G'ulomova X. Yo'ldosheva Sh.Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. T.: O'qituvchi . 2003
23. G'affarova T. va boshqalar. O'qish kitobi 1-sinf uchun. T.: 2006
24. G'affarova T. va boshqalar. 1-sinfda o'qish darslari. T. : 2003 .
25. Abdullaeva K. va boshqalar. O'qish ktobi . 2- sinf uchun. T.: 2006.
26. Abdullaeva K. va boshqalar. 2-sinfda o'qish darslari , T.: 2004
27. Umarova M., Hakimova Sh. O'qish kitobi . 3- sinf uchun, T.: 2006.
28. Umarova M . 3- sinfga o'qish darslari , T.: O'qituvchi. 2004 .
29. Matchonov S. Shojalilov A. G'ulomova X. Sariev Sh. O'qish kitobi . 4- sinf uchun. T.: 2007.
30. Matchonov S. va boshqalar 4- sinfga o'qish darlari , T., 2007.
24. Xudoberganova M. “ Bayonlar to'plami ” Toshkent 1995
25. Rojdestvenskiy N.S. Kustareva V.A. Metodika nachalnogo obucheniya russkomu yazo`ku. Prosvehenie. M.: 1965.
26. Tolipov U.K., Usmonbekova M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. T.: Fan.. 2006.
27. Yuldoshev J.. G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari., T.: O'qituvchi. 2004.
28. Umumiy psixologiya. T.: O'ituvchi. 1999.
29. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. T.: Sharq. 2000.